

**O`ZBEISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO`LIMI BIOLOGIYA
YO`NALISHI**

KURS ISHI

Mavzu: Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun"

**Bajardi: Urunova G.
Tekshirdi: Nomozova Z.**

Samarqand-2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. TABIATNI MUHOFAZA QILISH HAQIDA.....	5
1.1 Tabiatni muhofaza qilishning maqsadi.....	5
1.2 Tabiatni muhofaza qilish tarixi.....	6
1.3 Tabiatni o'rganishning qoida va shartlari.....	8
2. TABIAT BOYLIKLARI VA ULARNING MUHOFAZASI.....	10
2.1 Tabiiy boyliklar tasnifi.....	10
2.2 O'simliklar va hayvonot olamini muhofaza qilish.....	12
2.3 Suv resurslarini muhofaza qilish.....	15
3. TABIATNI MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDAGI QONUN.....	20
3.1 Qonunga kiritilgan muvofiq o'zgartirishlar.....	20
3.2 Qonunning boblari , moddalari va undagi qoidalar.....	21
XULOSA.....	41
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	44

KIRISH

Inson va tabiat bir-biriga uzviy bog'liq. Tabiat — inson va butun mavjudotlarni yashash sharoitining birdan-bir asosi. Uning boyliklari jamiyatni yashashi, rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy, madaniy ehtiyojlarini qondiradigan bitmas-tuganmas manba. Inson tabiatsiz yashay olmaydi, chunki u tabiatning ajralmas kichik bir qismi. U mavjudot sifatida tabiatga ta'sir ko'rsatadi. Lekin insonning tabiatga o'z aql-zakovati, mehnat faoliyati tufayli ta'sir qilishini hech nima bilan taqqoslab bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda mavjudotlar tabiatdan qanday bo'lsa, shunday foydalanib, unga sezilarsiz ta'sir ko'rsatadi. Inson esa tabiatga shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkinki, hatto tabiatni o'ziga bo'ysundiradi.

Odamzot o'zining aql-zakovati, mehnati tufayli hayvonlarga nisbatan tabiiy muhitning biologik nazoratidan chiqib, talablarini fiziologiyaga xos faoliyatining hajmini kengaytirishga sazovor bo'ladi. Uning tabiatga ta'sir qilishi ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi va xo'jalik uchun ishlatiladigan moddalarning ko'payishiga bog'liq.

Boshlang'ich jamiyat davrida odamlarning asosiy yashash manbai ov qilish, baliq tutish bo'lgan. Shuning uchun inson tabiat sharoitlariga qaram bo'lgan. O'sha vaqtlarda insonning ta'siri u ov qilgan jonivorlarning miqdorida aks etmagan. Chorvachilik rivojlana borishi tufayli insonning tabiatga bo'lgan ta'siri tobora kuchaygan. Chorva mollari sonining ortib borishi, tabiiy yaylov o'simliklar qoplamining keskin o'zgarishiga olib keldi. U yerlarda yashaydigan mavjudot o'zining yashash joyini o'zgartirib yubordi.

Dehqonchilik tizimining rivojlanish davrida inson tabiatga misli ko'rilmagan darajada ta'sir ko'rsata boshladi. Quruq yerlarni haydash, daraxtzorlarni kesish, kuydirish, daryolarga to'g'onlar o'rnatish bilan hududlar ko'rinishi va odamlarning yashash joyini o'zgartirib yubordi. U daryo suvlarining kamayishiga, tuproqning eroziya va defalyatsiyaga uchrashiga, hayvonot dunyosiga ta'sir ko'rsatdi. Ayrim noyob hayvonlar yashash joylarini o'zgartirgani bois, ularning soni kamaydi, ba'zilar butunlay halok bo'ldi. Shu bilan bir qatorda ba'zi hasharotlar va kemiruvchilar uchun qulay sharoit paydo

bo'ldi, natijada ular ko'payib. Qishloq ho'jaligiga zarar yetkaza boshladi.

Inson ishlab chiqarishni rivojlantirib borgan sari tabiatga katta zarar etkazildi. Sanoatning tez rivojlanishi bir qancha tabiat boyliklarini ishlab chiqarishga jalb qilishga olib keldi. Yerdan, o'rmonlardan, hayvonot dunyosidan keng foydalanish bilan bir qatorda tabiiy boyliklar ham jadal ishlatila boshlandi. Tabiiy boyliklardan tartibsiz va vahshiyona foydalanish uning jamg'armalari, zaxiralarini keskin kamayishiga olib keldi. Yerga ayovsiz mineral o'g'itlar solish yo'li bilan ko'p mahsulot olish natijasida tuproq o'zining biologik xususiyatlarini yo'qotib, eroziyaga uchradi. O'rmonzorlardan keng foydalanish yerning suv rejimini o'zgartirishiga olib keldi. Natijada, daryolarning sayozlanishi, ichimlik suvlarining kamayishi, iqlimni quruqlanishishi ro'y berdi. Hunarmandchilikning orta borishi oqibatida manzaralar keskin o'zgardi. Natijada, mavjudotlarning turlari, xillari keskin kamayib ketdi.

Sanoatning rivojlanishi tabiiy boyliklar kamayishi bilan birgalikda atrof-muhit ifloslanishiga olib keldi. Ishlab chiqarish chiqindilari suv, atmosfera va tuproqning ifloslanishiga sabab bo'ldi. Bunday ifloslanish tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelishi bilan bir qatorda hayvonot olami va inson salomatligi uchun xavfli bo'lib qoldi.

XX asrgacha insonning Yer kurasiga ta'siri mahalliy tusda bo'lgan bo'lsa, keyinchalik bu holat yer yuzasida tarqalib, dunyo miqyosiga yetdi. Bizning asrimiz biosferadan ionosferaga o'tishi haqiqatga yaqin bo'lib qoldi, ya'ni aql doirasiga mansub bo'lmoqda. Ilm-fan yu'tug'lari biosferamizning tuzilishi, faoliyati va uning bo'laklari biogeotsenoz yoki ekotartib haqidagi bilimlarimizdan ancha ilg'orlab ketdi. Shuning oqibatida va tarixiy sabablarga ko'ra, biosferada biokimyoviy hamda quvvat turg'unlik holatining buzilish sabablari namoyon bo'ldi.

Evolutsiyaning million yillar davomida bunyodga kelgan tabiiy majmualar — o'rmonzorlar, toza suv, toza havo, ekin yetishtirishga yaroqli tuproq, hayvonot turlari, odamlar ko'p to'plangan joylarda zararlanadi yoki qisman yo'qoladi. Biosferaga zararli sanoat chiqindilari, zaharli moddalar, ortiqcha o'g'itlar, radioaktiv moddalar, elektrostantsiyalarning isitilgan suvlari va inson faoliyatining boshqa chiqindilari kirib oldi. Bu chiqindilar o'zlarining kimyoviy tarkibiga ko'ra, sintetik moddalar bo'lganligi, ularni parchalovchi mavjudotlar redutsentlar bo'lmaganligi uchun tabiat ta'siridan o'zgarmaydi va modda aylanishiga qo'shilib ketmaydi. Shuning uchun ham ular biosferani ifloslantiradigan manbalarga aylanib, inson uchun zarur bo'lgan tabiatning o'z quvvatini tiklanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Atrof-muhitning ifloslanishi katta shaharlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda, hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning yirik shaharlarida ichimlik suvi yetishmayotganligi, havo zaharli moddalar, jumladan, qo'rg'oshin bilan zaharlanganligi aniqlangan. Ko'pgina ko'l va daryolar biologik nuqtai nazardan faoliyatsiz hisoblanadigan bo'lib qoldi. Yirik shaharlar axlatlar, chiqindilarga to'lib ketgani tufayli turli yuqumli kasalliklar kelib chiqish xavfi

tug'ilmoqda. Umuman, insonning tabiatga bo'lgan ta'siri shunchalik kuch olib, katta xavf tug'dirmoqdaki, u biologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining kelgusida rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Uzoq vaqtgacha inson tabiatga o'zining moddiy talablarini qondiradigan bitmas-tuganmas manba sifatida qarab keldi. Lekin u keyinchalik o'zining tabiatga bo'lgan salbiy ta'sirini qanchalik zararli ekanligiga iqror bo'lgan holda undan (tabiatdan) oqilona foydalanish lozimligi va hatto uni muhofaza qilish zarurligini tushunib yetdi.

1. TABIATNI MUHOFAZA QILISH HAQIDA

1.1. Tabiatni muhofaza qilishning maqsadi

Tabiatni muhofaza qilish qadim zamonlardan boshlangan va uning maqsadi sekin-asta mukammallashib bormoqda. Ilgari tabiatni muhofaza qilish moddiy boylik nuqtai nazaridan qilingan bo'lsa, hozirgi zamonga kelib, uning maqsadi keng tus olmoqda. Ayni vaqtda tabiatni muhofaza qilishning maqsadlari iqtisodiy, sog'lomlashtirish, tozalik (gigiena), tarbiyaviy-badiiy (estetika) va ilmiy yo'nalishlarga bo'linadi.

Iqtisodiy yo'nalish. Bu ilgari va hozir ham asosiy muammo hisoblangan. Tabiatni muhofaza qilishning bu yo'nalishi odamlar hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, hozirgi vaqtda xo'jalik ehtiyojlari uchun bir qancha tabiiy boyliklar jalb qilingan bir paytda, tabiatni iqtisodiy muhofaza qilish mohiyati yana oshmoqda. Ayniqsa, o'simliklar, hayvonlar tuproq unumdorligi, chuchuk suv, iqlim va qazilma boyliklarni muhofaza qilish keskin tus olayotir.

Sog'lomlashtirish — tozalik yo'nalishi. Tabiatni muhofaza qilishning bu yo'nalishi atrof-muhitni ifloslanish munosabati bilan yaqinda paydo bo'ldi. Toza ifloslanmagan tabiat inson va boshqa mavjudotlar organizmiga yaxshi ta'sir qiladi, shuning uchun u davolash maqsadlarida qo'llaniladi. Ayniqsa, yirik sanoat hududlarida ifloslangan suv, havo va turli chiqindilar bilan birgalikda atom-vodorod qurollarini sinashda radioaktiv moddalar bilan zararlangan tuproq odamlar salomatligiga katta zarar yetkazmoqda. Shuning uchun tabiatni sog'lomlashtirishda tozalik yo'nalishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy yo'nalish. Tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy ahamiyatini baholash qiyin. Insonning tabiat bilan yaxshi muloqotda bo'lishi uni xushfe'l, yumshoq, insofli bo'lishga yo'llaydi. Tabiatni sevish, unga yaxshi munosabatda bo'lish, mavjudotlarga nisbatan rahmdil, xulq-atvorining yoqimli bo'lishiga olib keladi. Shu bois tabiatni muhofaza qilishning tarbiyaviy yo'nalishi o'ziga xos kasb etadi.

Badiiy yo'nalish. Tabiatni muhofaza qilishning shunday holatini qo'llash kerak u odamlarning badiiy (estetik) talablarini qondirsin.

Tabiat qadim zamonlardan beri insonlar uchun go'zallik, nafasat manbai bo'lib xizmat qilgani tufayli shoirlar, yozuvchilar, rassomlarning ilhomini keltirgan. Tabiat go'zalliklari odamlarni sayohatga (turizmga) chorlaydi, organizmning jismonan chiniqishini yaxshilaydi. Shunday ekan, tabiat go'zalliklarini muhofaza qilishga alohida e'tibor berish lozim.

Ilmiy yo'nalishi. Keyingi yillarda tabiatni muhofaza qilish ilm-fanning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Tabiatni muhofaza qilishning bu yo'nalishi mavjudotlarning barcha turlarini, tabiatning e'tiborga sazovor manzarasini saqlab qolishning o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Tabiatning tabiiy holati qanchalik yaxshi saqlangan bo'lsa, unga inson tomonidan ko'rsatilgan ta'sirlarni oson tushunish va ularning sabablarini bilish, uni oldindan aytib berish hamda tabiatni saqlash tadbir choralari ishlab chiqishga yordam beradi. Tabiatni muhofaza qilish fanining tub maqsadi yer yuzasidagi barcha xalqlarni yashashi uchun qulay sharoit yaratish va moddiy hamda ma'naviy talablarini qondirishdir (Internet ma'lumoti).



Tabiat yodgorligi

1.2. Tabiatni muhofaza qilish tarixi

O'tgan zamonlarda, tabiatni muhofaza qilish turlicha ma'noga ega bo'lgan. «Tabiatni muhofaza qilish» atamasi tabiatni saqlash yuzasidan 1913 yilda o'tkazilgan birinchi Xalqaro anjumandan so'ng keng tarqaldi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida, qachonki, insonning faoliyati mahalliy holatga ega bo'lganda, tabiatni muhofaza qilish deb ayrim zaiflashgan tabiiy manbalarni xo'jalikda foydalanishdan ajratilgan holatda saqlash masalasi tushunilib kelindi. Shunga muvofiq, tabiatni muhofaza qilish qo'riqxonolari tashkil qilinishini, noyob hayvonlar ov qilinishini taqiqlash, tabiiy yodgorliklarni saqlashdan iborat bo'lib qoldi. Bunday tushuncha uzoq vaqtgacha saqlanib qoldi. Keyinchalik insonning tabiatga ta'sir qilishga bo'lgan

harakatining kuchayishi tufayli tabiatni muhofaza qilish tushunchasi ham kuchaydi.

Hozirgi paytda *tabiatni muhofaza qilish deb*, tabiat boyliklaridan ma'lum yo'nalishda unumli foydalanish, uni saqlash, tabiiy muhitning ifloslanishi, buzilishidan himoya qilish, tabiiy boyliklarni tiklash, hozirgi, kelajak avlodni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan davlat hamda jamoat tadbiriy choralari tushuniladi.

Uzoq vaqtgacha tabiatni muhofaza qilish amaliy, tadbiriy choralarning majmualari deb qarab kelindi. Lekin hozirgi paytda tabiatni muhofaza qilishni amalda hal qilish ehtiyoji tug'ilgan bir vaqtda maxsus, nihoyatda keng va chuqur, har tomonlama puxta o'ylangan tadqiqotlar asosida ish ko'rmay turib, qo'yilgan muammoni hal qilib bo'lmaydi.

Tabiatni muhofaza qilishga oid ilmlarning shakllanishi nisbatan yaqinda boshlandi. Bundan 100 yil muqaddam insonning tabiat bilan bo'lgan muloqoti muammolari uni saqlash nuqtai nazaridan ishlab chiqildi. Shunga ko'ra, hozirgi zamon tabiatni muhofaza qilish faniga quyidagicha ta'rif berish mumkin: tabiatni muhofaza qilish tabiiy boyliklarga bo'lgan murakkab muloqotlarning (ontropogen) o'zgarishlarini o'rganadigan fan. Bu o'zgarishlarning inson uchun ahamiyatini aniqlab, tabiiy boyliklardan to'g'ri foydalanish va ularni insoniyatning hozirgi, kelajak avlodi uchun eng muhim bo'lgan miqdori hamda sifat xususiyatlarini qayta tiklash uslublarini ishlab chiqadi (yaratadi). Bu yangi fan mavjudot va jismlarning tabiatini, barcha murakkab hodisalarini ma'lum nuqtai nazarda o'rganadigan biogeokimyoviy, biologiya, tuproqshunoslik, o'simlik mahsulotlari etishtirish texnologiyasi, gidrobiologiya, geogigiena, fiziologiya kabi fanlar qatoridan joy olishi kerak. Tabiatni muhofaza qilish fani bo'yicha insonning vazifasi mavjudot va jismlarining tabiatga bo'lgan xilma-xil ta'sirlarini o'rganish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ularni e'zozlab saqlash yo'llarini yaratish, boshqacha qilib aytganda, tabiatni muhofaza qilish fani uni o'rganish bo'yicha o'zining mustaqil nuqtai nazariga ega (Rafiqov A.A., 1997).

Tabiatni muhofaza qilish muammosi hozirgi kunda muhim bo'lib, insoniyatning farovonligi uni to'g'ri hal qilinishiga bog'liqdir. Bu muammoning dolzarbligi ishlab chiqarish kuchlarini kelgusida taraqqiy qilishiga to'sqinlik qilayotgan va tobora kamayib borayotgan tabiiy boyliklarning holati bilan belgilanadi. Dunyo aholisining muntazam ko'payib borishi tabiatni muhofaza qilish muammosi naqadar zarur ekanligini ko'rsatmoqda. Bu masalaning mohiyati shundaki, keyingi yillarda atmosferada karbonat angidrid va radiatsiyaning ko'payishi, yashil o'simliklar maydonining keskin kamayishi biosferaning o'zgarishiga, yer yuzida hayotning borishiga halaqit bermoqda, hatto uni butunlay yo'q bo'lib ketish xavfini tug'diryapti. Shuning uchun ham tabiatni himoya qilish, atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash ilmiy masalagina bo'lib qolmay, balki muhim sotsial va siyosiy muammoga aylanmoqda. Biosferaning ifloslanishi texnika jarayonlari mahsuli hisoblanadi. Katta foyda olish maqsadida tabiat boyliklaridan o'ylamasdan foydalanish inson yashab

turgan muhitni ifloslanishiga olib kelmoqda (Nig'matov A.N., 2004).

Biosfera boyliklaridan oqilona foydalanish va atrof muhitning himoya qilish ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari hamda ilm-fan taraqqiy qilgan bir paytda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilayotir. Bu borada bir qancha qaror va tadbiriy choralar ishlab chiqilgan holda katta mablag' ajratilmoqada.

Tabiatning tengi yo'q go'zalligi, boyliklari — umumxalq mulki. Shuning uchun ham uni himoya qilish umumxalq ishi. Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish keng quloch yoygan. Ayniqsa, bu sohada millionlab odamlarni birlashtiruvchi jamoatchilikning mavqei katta. Ular tabiatni himoya qilish haqidagi qarorlarni, tadbiriy choralarni izchillik bilan amalga oshirmoqdalar.

Tabiatni saqlash ishlariga yoshlar keng jalb qilingan, hozir mamlakatimizda maktab o'quvchilari ham bu ishda faol qatnashyapti. Ular katta-katta maydonlardagi o'rmonzorlar, yaylovlar, suv havzalari va hokazolarni himoya qilishmoqda. Millionlab ko'chatlar o'tqazilyapti. Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish ishlarining nazariya asoslarini yaratish sohasida katta ishlar qilinayotir. Hozgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5—4,7 mlrd. yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni Quyosh nuri, Yerning massasi, gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ta'sirida tarkib topgan. Tabiiy muhitning holati o'zaro ta'sir etib turuvchi ko'p omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog'liq. Chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya'ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoqyaqinligi, oqimlari va b.ga; o'simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog' jinslari, relyef, tuproqlarga bog'liq. Bu tabiiy omillarning birontasida o'zgarish ro'y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ba'zan, tabiatning biror komponentiga ko'rsatilgan arzimagan ta'sir hech kutilmagan katta o'zgarishlarga, xususan xavfli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiyaning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi. Yerning havo qobig'idagi hozirgi gazlar tarkibi, mikdori, ayrim foydali qazilmalari, emas, ohaktosh, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mirning hosil bo'lishi, tuproq qoplamining tarkib topishi, rivojlanishi organizmlarning hayot faoliyati natijasidir. Organik dunyoning tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siri biologik evolyutsiya jarayonida yangi turlarning paydo bo'lishi, raqib turlar sonining ko'payishi yoki kamayishi va atrof muhitning o'zgarishi natijasida o'zgaradi (Akramov 3. M., Rafikov A.A., 1990).

1.3 Tabiatni o'rganishning qoida va shartlari

Umumiy o'zaro bog'liqlik qonunlari tabiatni muhofaza qilish uchun bir qancha shartlarni belgilashga imkon beradi.

Birinchi shart shundan iboratki, tabiatning barcha hodisalari bir qancha ahamiyatga ega, shuning uchun har tomonlama baholanishi lozim. Har bir hodisa xalq xo'jaligi tarmoqlarining barcha ehtiyojlarini hisobga olgan holda, birinchi navbatda tabiatning quvvatini qayta tiklashga qaratilishi lozim. Masalan, o'simliklarga birinchi navbatda oziq-ovqat, em-xashak deb qaralsa, ikkinchi navbatda u kislorod manbai, uchinchidan, havoni karbonat angidrididan tozalaydi, tuproqni saqlaydi. Suv manbalariga ham shunday qarash mumkin. Daryolar bir tomondan qulay transport vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan dalalarga suv etkazib beradi.

Ikkinchi shart shundan iboratki, tabiiy boyliklardan foydalanilayotganda mahalliy sharoitni hisobga olish lozim. Tabiatni u yoki bu boyliklaridan foydalanilayotganda butun mamlakat nuqtai nazaridan emas, mahalliy hududni talabi jihatidan hisob-kitob qilish kerak. Buni tabiatni muhofaza qilishning to'g'ri hudulligi deyiladi. Bu uslub bilan suv va tuproq xususiyatlari hisobga olinadi.

Uchinchi shart shundan iboratki, tabiatning bir xil boyligini muhofaza qilish unga yaqin bo'lgan ikkinchisini saqdashga olib keladi. Suvni ifloslanishdan saqlash bir vaqtning o'zida baliqlarni himoya qilish bilan bog'liq.

Shunday qilib, tabiatning bir boyligini uning ikkinchi boyligi orqali muhofaza qilish ham mumkin. Lekin shuni ham aytish kerakki, tabiatning bir boyligini himoya qilish, uning ikkinchisiga katta zarar etkazishi ham mumkin. Yaylovlarda chorva mollarining haddan tashqari ko'payishi bunga misol bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan shartlarga ko'ra, tabiatni muhofaza qilish har tomonlama puxta o'ylangan, ilmiy jihatdan asoslangan yo'sinda olib borildi (G'ulomov P.N., Место для формулы.1990).



Tabiat bir kaft tuproqda

2. TABIAT BOYLIKLARI VA ULARNING MUHOFAZASI

2.1. Tabiiy boyliklar tasnifi

Tabiiy boylik, bu — inson tomonidan o'z foydasiga ishlayotgan barcha borliq hozirgi paytda tabiiy boyliklarga atmosfera havosi, suv, tuproq, quyosh va kosmik radiatsiya, foydali yer osti boyliklari, iqlim, o'simliklar va hayvonot dunyosi kiradi. Tabiiy boyliklardan oqilona, samarali foydalanish, ularni to'g'ri tasniflash katta ahamiyatga ega. Insonning tabiatga ta'sir qilishiga ko'ra, tabiiy boyliklar ikkiga bo'linadi. Tugaydigan boyliklar, ular o'z navbatida tiklanmaydigan va tiklanadigan guruhlariga bo'linadi. *Tiklanadigan tabiiy boyliklarga:* foydalanishga ko'ra, bir necha million yil davomida sekin tiklanadigan boyliklar kiradi. Ularning birinchisiga toshko'mir, neft va boshqa bir qancha yer osti boyliklari, ikkinchisiga, torflar, ko'pchilik cho'kindi tog' jinslari kiradi. Bu boyliklardan foydalanish ularni, albatta, kamayib ketishiga olib keladi. Tiklanmaydigan boyliklarni muhofaza qilish, oqilona, samarali foydalanish davrida isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, ularning o'rniga ishlatiladigan boshqa vositalarni topishdan iborat.

Tiklanadigan tabiiy boyliklari tuproq, o'simliklar va hayvonot dunyosi va boshqa ayrim mineral boyliklar, ko'l va dengizlar ostiga cho'kkan tuzlardan iborat. Bu boyliklar foydalanish jarayonida asta-sekin tiklanadi. Lekin qayta tiklanishi uchun ma'lum tabiiy sharoit zarur. Bunday sharoitning buzilishi qayta tiklanishni qiyinlashtiradi yoki butunlay barbod qiladi, qayta tiklanish jarayoni har xil boylik uchun ma'lum tezlikda boradi. Masalan, ov qilib yo'qotilgan qushlarning qayta tiklanishi uchun bir yoki bir necha yil, arralangan o'rmon daraxtlarini tiklash uchun kamida 60 yil, yo'qotilgan tuproqni qayta tiklash uchun esa bir necha ming yil kerak bo'ladi. Shuning uchun tabiiy boyliklardan foydalanish tezligi ularning tiklash tezligiga mos bo'lishi lozim. Bu nisbatning buzilishi (o'rmon, hayvonot, unumdorlik) tabiiy boyliklarning zaiflashishiga olib keladi. Yo'q qilingan hayvonlar, o'simliklar va tuproq unumdorligi inson tomonidan tiklab bo'lmaydigan holatga kelib qolishi mumkin.

Tiklab bo'ladigan tabiiy boyliklarni himoya qilish ulardan oqilona

foydalanish yo'li bilan olib borilishi lozim. Bunda, asosan, ularni qayta tiklash tadbiriy choralar bilan ta'minlashi lozim.

Tugamaydigan boyliklarga suv, iqlim va koinot boyliklari kiradi.

Suv boyliklari. Sayyoramizda suv turli holatlarda mavjud bo'lib, uning jamg'armasi nihoyatda katta. Lekin inson faoliyati tufayli yer kurasining ayrim qismlari keskin o'zgarib, yaroqsiz holga kelib qolmoqda. Amalda dunyo okeanlarining suvi tugamaydi, lekin neft va boshqa mahsulotlar chiqindilari bilan ifloslanishi oqibatida o'z xususiyatini yo'qotayпти. Bunday iflos suv o'simliklar va hayvonlarning yashash sharoitini yomonlashtirayotir. Chuchuk suvlarga odamlarning ehtiyoji juda katta, ular tugab qolishi mumkin. Er kurasida chuchuk suvlarning jamg'armasi ayrim joylarda sug'orish, sanoatda va boshqa ehtiyojlar uchun ishlatilishi natijasida, uning miqdori tobora kamayib bormoqda. Chuchuk suvlarning kamayishi ularga bo'lgan ehtiyojlarning o'sib borishi oqibatidagina emas, balki o'rmonlarning yo'q qilinishi, daryolarning sayozlanishi, ko'llarning qurishi, suv manbalarining ifloslanishi va insonning boshqa xo'jalik faoliyatlari tufayli ro'y berayapti. Chuchuk suv masalasi kun sayin jiddiy tus olayotir. Shuning uchun suv va uning sifati juda qattiq muhofaza qilinishi lozim.

Iqlim boyliklari atmosfera havosi va shamolning kuchidan iborat. Atmosfera havosi bitmas-tuganmas. Lekin uning tarkibi radioaktiv moddalar, karbonat angidrid, turli gazlar, qo'shilmalar, transport vositalari ajratmalari, mexanik qo'shilmalar va boshqalar bilan ifloslanmoqda.

Sanoat markazlarida atmosfera havosi inson hayotiga xavf solayotir. Shuning uchun ham havoning tozaligini muhofaza qilish muhim masala bo'lib qolmoqda.

Koinot boyliklari. Bularga quyosh radiatsiyasi, dengiz suvining ko'tarilish quvvati kiradi. O'z holida bu boyliklar tugamaydi. Lekin sanoat shaharlarida quyosh radiatsiyasi havoning tumanlashishi hisobiga o'zgarmoqda va insonning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Shuning uchun koinotning sof havosini muhofaza qilish lozim. Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra, tabiiy boyliklar tasnifi shartli tusga ega.

Tabiiy boyliklarni muhofaza qilish uchun ularning miqdor hisobini bilmasdan turib, qayta tiklash tadbiriy choralarini yaratib bo'lmaydi. Bu sohada katta ishlar qilinmoqda, lekin ular yetarli emas. Birinchi navbatda tugaydigan boyliklar, ayniqsa, ular jadal foydalanayotgan joylarda aniq hisob-kitob olib borish zarur. Chunki inson taqdirini hal qiladigan tabiiy boyliklar hisobi, ularning miqdori va sifatini mukammal hamda o'z vaqtida aniqlash lozim (To'xtayev L., Hamidov A., 1994).



Tabiatga bo'lgan salbiy munosabat natijasi

2.2. O'simliklar va hayvonot olamini muhofaza qilish

O'simliklar dunyosi Yerdagi hayotning birlamchi manbai hisoblanadi. O'simliklar va hayvonlar yerning hayot qobig'i-biosferaning asosiy komponentlaridan bo'lib, tabiiy resurslar orasida alohida o'rinni egallaydi. O'simlik va hayvonot olamida oqilona foydalanilganda doimiy mahsulot beradigan manbaalarga aylanadi.

Tabiatdagi o'ziga xos barqaror muvozanat o'simlik va hayvonlarning biologik xilma-xilligiga bog'liq. Biosferada o'simliklar tomonidan organik moddalarning yaratilishi, moddalarning davriy aylanishi asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'simliklar yer yuzidagi hayotning asosi hisoblanadi, ular tugaydigan va tiklanadigan resurslarga kiradi. Sayyoramizda 500 mingdan ortiq, shu jumladan O'zbekistonda to'rtmingga ortiqroq (4148) o'simlik turlari aniqlangan. Ular yiliga 380 mlrd. tonna organik modda hosil qiladi, buning 325 mlrd. tonnasi dengiz va okean o'simliklariga, 38 mlrd. tonnasi o'rmonlarga, 6 mlrd. tonnasi o'tloqlarga to'g'ri keladi. Bu organik moddalar barcha boshqa organizmlar uchun ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Bunday tashqari o'simliklar tabiatda eng muhim jarayonni – fotosintezni o'tab, barcha tirik organizmlarning nafas olishi uchun zarur bo'lgan kislorodni yetkazib beradi. Fotosintez natijasida Yer sharidagi suv 5,8 mln. yilda, atmosferadagi kislorod 5800 yilda, karbonat angidrid (CO_2) 7 yilda bir marta yangilanib turiladi. Shuningdek, o'simliklar muhim tabiiy-geografik omil sifatida iqlim omillariga (Yer yuzidagi suv oqimiga, bug'lanishga, tuproqda nam saqlanishida, atmosferaning pastki qismidagi havmo oqimi shamolning kuchi va yo'nalishiga) hayvonlarning hayot tarziga katta ta'sir qiladi.

Sayyoramizda mavjud bo'lgan 500 ming o'simlik turining 6000 turidan

inson kundalik hayotida foydalanadi. Shundan 1500 turi dorivor o'simlik sifatida ahamiyatga ega. O'simliklarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyatiga ko'ra bir necha guruhlariga bo'lish mumkin:

- Suv o'simliklari, ulardan inson kam foydalanadi, lekin ular tabiatda kislorod va ozuqa manbai hisoblanadi; suvlarning neft va oqovalar bilan ifloslanishi suv o'simliklariga zarar yetkazadi va muxofaza choralari ko'rish zarur.

- Tuproqda yashovchi o'simliklar, bakteriyalar, zamburug'lar, suvo'tlar. Bular tuproqdagi tirik organizmlar qoldiqlarini parchalanishida muhim rol o'ynaydi hamda tuproqning unumdorlik xususiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Tuproqning sanoat va maishiy chiqindilari bilan ifloslanishi tuproq o'simliklarini muxofaza qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Turlari eng kam yer osti o'simliklari bo'lib, ular asosan bakteriyalardan iborat va 5 km gacha chuqurlikda uchraydi.

- Yer usti o'simliklari turlarga eng boy bo'lib, bu o'simliklar inson tomonidan eng ko'p foydalaniladi va insonning kuchli ta'siri ostida bo'ladi.

O'simliklar umuman biosfera biomassasining asosiy qismini o'rmonlar tashkil etadi.

Yer yuzidan o'simlik qoplami, shu jumladan o'rmonlar iqlim olimlarini boshqarib turishda asosiy 800 vazifani bajarib turadi.

Hozirgi vaqtda yog'ochdan 20 mingga yaqin mahsulotlar olinadi. O'rmonlar biomassasi biosfera biomassasining 98% yaqinini tashkil etadi.

O'rmonlar kishilmk jamiyati taraqqiyoti davrida undan intensiv foydalanish natijasida tabiiy holati o'zgarib, maydoni qisqarib bormoqda. Agar bundan 3-3,5 ming yil ilgari Yer yuzasining 47% ini (7 mlrd.dan ziyotroq) o'rmonlar qoplagan, hozir uning maydoni 27% (4 mlrd.60mln. ga) ni tashkil etadi. Hozirgi kunda Yer yuzasida yaylov va o'tloqlar maydoni 2 mlrd. 600 mln.gektarni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida o'rmon bilan qoplangan maydon 2 mln. 370 ming ga bo'lib shuning 283,7 ming gektari tog'larda joylashgan. O'zbekiston Respublikasidagi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 50,1% tabiiy yaylovlarga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtda o'rmonlar maydonining keskin qisqarish jarayonlari davom etmoqda. Sayyoramizning «o'pkasi» hisoblangan tropik o'rmonlar minutiga 15-20 gektardan kesilmoqda, millionlab gektar o'rmonlar yong'inlar natijasida yo'q bo'lib ketmoqda, yangi yerlarni o'zlashtirish, atrof-muhitning ayniqsa atmosferaning ifloslanishi natijasida o'nlab o'simlik turlari yo'qolmoqda. Jumladan, O'zbekistonda 400 dan ortiq o'simlik turlari «Qizil kitob» ga kiritilgan. Hayvonlar biomassasi biosferadagi tirik biomassasining 2 foizini tashkil qiladi, ular biosferada moddalar almashinuvi va boshqa jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Biosferadagi hayvonlar turi 2 milliondan oshadi. Ularning xilma-xilligi moddalar aylanma harakatida, energiya oqimining tahsilanishida juda katta ahamiyatga ega. Chunki ular asosiy konsumentlar va redusentlardir. Hayvonlarning 1,5 millionga yaqin turlari hashoratlarga to'g'ri

keladi, hasharoitlarning biosferadagi o'rni beqiyosdir.

Hayvonlar gulli o'simliklarni changlaydi, ko'p miqdorda o'simlik massasini iste'mol qiladi. hashorotlar rivojlanish jarayonida ko'p miqdorda o'simlik massasini 10% gacha iste'mol qiladi. Shuning uchun hashorotlarning mahsuldorligi boshqa hayvonlarga nisbatan o'n marotaba yuqori. Bu o'z navbatida ko'pchilik hayvonlarni: qushlar, yirtqichlar, amfibiya va reptiliyalarni hashorotlar hisobiga yashashini ta'minlaydi. Hashorotlarning tuproq shakllanishida, hayvon qoldiqlari va ekskrementlarining parchalanishida ahamiyati katta. Yer yuzidagi hayvonlar biomassasining 95 foizidan ortig'ini umirtqasizlar to'g'ri keladi.

Dunyo okeanida hayvonlar biomassasi o'simliklar biomassasidan kattadir, chunki, hosil bo'lgan o'simlik biomassasi tezda oziq zanjiriga tushadi.

Hayvonot olamining ahamiyati biosferada tiriklikning asosi deb qaralsa xato bo'lmagan bo'lar edi. Tuproq unimdorligining oshishi, baliqlarning va boshqa dengiz hayvonlarining oziq-ovqat mahsuloti sifatida foydalanishi, o'simliklar urug'larning tarqalishi va h.k.

Insonning bevosita ta'siri natijasida oxirgi ikki yuz yil ichida 300 dan ortiq sut emizuvchilar va qushlar turlari yo'q qilindi. O'rmonlarning kesilishi, yelarning o'zlashtirilishi, hayot muhitining ifloslanishi orqali inson katta miqyosda hayvonot dunyosiga bilvosita ta'sir ko'rsatdi.

Ekosistemalarda organizmlar qanchalik xilma-xil bo'lsa, uning tashqi ta'sirga chidamliligi ham shunchalik kuchli bo'ladi. Shuning uchun biosferadagi mavjud xilma-xillikni saqlab tabiatni muxofaza qilishning asosiy vazifalaridan biridir.

Biosferadagi muvozanatni saqlab qolishda o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish katta ahamiyatga ega.

Bu maqsadga erishish uchun turli tadbirlar o'tkaziladi. XIX asrdan boshlab qo'riqxonalar, milliy bog'lar, buyurtmalar tashkil qilindi (Baratov P.T., 1991).

Tabiatda barcha borliq va hodisalarning bir-biriga bog'liqligi. Tabiatda barcha borliq narsalar, hodisalar va jamiyat bir-biriga bog'liq, faqat shu hisobga olingandagina tabiiy boyliklarni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanishning ilmiy va amaliy asoslarini yaratish mumkin. Insoniyat o'ziga kerak bo'lmagan moddalarni tabiatga qaytarishi tufayli unga (tabiatga) shunaqa o'zgartirishlar kiritishi mumkinki, ular bir odamni keyingi hayoti uchun har xil darajada ta'sir qiladi. Jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi barcha borliq va hodisalar o'rtasidagi munosabatlardan iborat. Bu bog'liqlikni buzish ko'pincha yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, qadimda Misr, Gretsiya, Kichik Osiyo va boshqa joylarda odamlar ekin ekadigan yerlarni kengaytirish maqsadida daraxtzorlarni yo'q qilishgan. Bora-bora go'zal maskanlar Sahroyi Kabirga aylanib ketishi ularning tushlariga ham kirmagan. Buning ustiga, daraxtzorlar bilan birga suv yig'iladigan manbalar ham yo'q qilib yuborilgan. Tabiatdagi o'zaro bog'liqlikni tushunish va ulardan to'g'ri xulosa chiqarish uchun uzoq vaqt kuzatish, chuqur ilmiy tadqiqot ishlari olib borish lozim. Chunki, tabiatdagi

o'zgaradigan hodisalar uzoq vaqt davomida juda sekin boradi.

Suv, havo, shamol va shunga o'xshash tabiiy manbalar yo'liga zararli moddalar bilan ishlaydigan, atrof-muhitni ifloslaydigan korxonalar qurish insoniyat va barcha mavjudotlar hayotiga xavf tug'diradi. Toshkent tog'oldi hududida joylashgan. Shahar uchun joy tanlagan ota-bobolarimiz juda puxta o'ylab ish ko'rishgan. Tog'dan toza suv, toza havo, toza shamol kelishini hisobga olishgan ko'rinadi. Haqiqatan ham Toshkent o'zining xislatlari: zilol suvlari, toza havosi, hayotbaxsh shabadasi bilan kishilarning diqqatini o'ziga tortgan. Bu holat ham shaharning o'sishiga, obodonlashishiga asos solgan, dunyoga tanitgan.

Tabiatdagi barcha borliq va hodisalar o'zlarining ma'lum xususiyatlariga ega va o'zaro uzviy bog'liq. Ularni o'zgartirish oqibatida nimalar ro'y berishini yaxshilab hisob-kitob qilmay turib, tabiat hodisalari mohiyatini to'liq anglab bo'lmaydi. Natijada, insoniyat juda katta zarar ko'rish va talofatga uchrashi mumkin. Insonning tabiatga bo'lgan ta'siri va hodisalarning o'zaro bog'liqligini uni muhofaza qilish nuqtai nazaridan o'rganish lozim.

Barcha tiklanadigan tabiiy boyliklarga ularning mexanik yigindisi emas, balki bir butun deb qarash lozim. Bu tabiatni o'rganishda yangicha fikrlashning asosi bo'lishi lozim. Shuning uchun aholining barcha tabaqalarini tabiatni muhofaza qilishga har taraflama mukammal o'rgatishga qaratish kerak (Yo'ldoshev H., 1997).



Buxoro bug'usi-Xongul



Qirg'ovul

2.3. Suv resurslarini muhofaza qilish

Yer kurrasidagi suvlardan iborat bo'lgan qobiq gidrosfera deb ataladi va unga sayyoramizdagi hamma suvlar – okean, dengiz, ko'l, daryo, muv, botqoqlik va 5 km chuqurlikkacha bo'lgan yer osti suvlari kiradi.

Yer yuzasidagi suv miqdorining 93,96% ini sho'r okean va dengiz suvlari, 4,12% ini yer osti suvlari, 1,65% ini muzliklardagi suvlar, 0,026% ini ko'l suvlari, 0,0001% inigina chuchuk daryo suvlari tashkil etadi.

Hayot uchun zarur o'lgan chuchuk suv miqdori cheklangan bo'lib, 84 million 827,2 ming km^3 ni tashkil etadi. Bu butun gidrosferadagi umumiy suv miqdorining 6% i demakdir. O'sha chuchuk suvning 60,0 mln. km^3 yer osti suvlariga, 24,0 mln km^3 muz va qorlarga, 750 ming km^3 ko'llarga, 75 ming km^3 tuproqdagi suvlarga, faqat 1,2 ming km^3 esa chuchuk daryo suvlariga to'g'ri keladi.

Dunyodagi barcha daryolar bir yilda okeanlarga 45 ming km^3 suv olibkeladi. Gidrosferadagi suv doimo harakat qilib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib aylanib yuradi. Quyosh nurining ta'sirida yer yuzasidan har yili 520 ming km^3 suv bug'lari atmosferaga ko'tariladi va to'yinib, kondensasiyalashib, 520 ming km^3 suv yog'in tariqasida yana yer yuzasiga qaytib tushadi.

Yer yuzasiga qaytib tushgan suvni (520 ming km^3) bir qismi yana bug'ga aylanadi, bir qismi shimilb, gurunt suvini hosil qiladi, bir qismi esa daryolar orqali dengiz, okeanlarga quyiladi. Yerga shimilgan suv ma'lum vaqtdan so'ng yana bug'ga aylanadi.

Yer kurrasida suvning beto'xtov aylanishi natijasida dunyo okeanlari suvi 3000 yilda, yer osti suvi 5000 yilda, muzliklar 8000 yilda, ko'llar 7 yilda, tuproqdagi namlik esa bir yilda, daryo suvlari 31 sutkada bir marta almashinib, yangilanib turadi.

Qishloq xo'jaligida, sanoatda, kammunal-maishiy xo'jalikda va boshqa

sohalarda gidrosferaning faqat 2% ini yoki 28,25 mln km³ ni tashkil etuvchi chuchuk daryo, ko'l, aktiv suv almashinishi zonasidagi yer osti suvlari, muzliklardagi suvlardan foydalanilmoqda. Biroq chuchuk suv resurslarining 85% i (24,0 mln. km³) hozircha inson juda kam foydalanayotgan muzliklarga to'g'ri keladi.

Ko'rinib turibdiki, kishilarning xo'jaligi uchun zarur bo'lgan daryo, ko'l va yer osti chuchuk miqdori juda kam. Bu chuchuk suvning regional yetishmasligidan tashqari global yetishmaslik havfining vujudga kelishiga sababchidir.

Buning ustiga chuchuk daryo suvlari sayyoramiz bo'yicha notekis taqsimlangan.

Dunyo aholisining 72% i yashaydigan Yevrosiyoda umumiy daryo suvining 31% iga yaqini oqadi. Agar Yevropada jon boshiga yiliga 4,4 ming m³, Osiyoda 6,24 ming m³, Afrikada 13,1 ming m³ oqim to'g'ri kelsa, Janubiy Amerikada 51,5 ming m³ oqim to'g'ri keladi. Yer kurrasi bo'yicha esa hg'ar bir kishiga yiliga o'rtacha 11 ming m³ daryo suvi to'g'ri keladi. Mamlakatlar bo'yicha ham suv resurslari notekis joylashgan. Agar Hindistonda jon boshiga 5 yiliga 3,4-3,1 ming m³ to'g'ri kelsa, bu miqdor Norvegiyada – 108,8 ming m³ ni tashkil etadi.

Yer kurrasining ekvatorial qismida, shimoliy yarimsharning o'rtacha va subtropik mintaqalarida suv resurslari ko'p. Janubiy Amerikada va Janubiy Afrikada bir kishiga yiliga 25-51,5 ming m³ oqim to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich shimoliy yarimsharning subtropik va o'rtacha mintaqalarda 25 ming m³ dan ortiq.

Kishilik jamiyatining faoliyatini suvsiz tasavvur etish mumkin emas. Inson dunyoga kelgan kundan boshlab chuchuk suvdan foydalangan va u vaqtlarda toza suvning yetishmasligi sezilmagan. Aholining tez o'sishi, sanoatning rivojlanishi, shaharlar sonining ko'payishi, sug'orma dehqonchilik maydonining kengayib borishi tuafyli chuchuk suvga bo'lgan talab tobora ortib bordi. Hozirda chuchuk suvga bo'lgan talab shunchalik ortib ketdiki, hatto sanoatlashgan ba'zi rayonlarda uning yetishmasligi sezilmoqda (Chernova N.M., 1988).

Suvdan xo'jalikda foydalanishni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy manbalardan suv oliy foydalanish yoki suv iste'mol qilish. Bunga sanoatni, aholini, maishiy kommunal xo'jalikni va qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlash kiradi.

2. Tabiiy manbalardan suv olmasdan foydalanish yoki oqimdan foydalanish. Bunga kema qatnovi, gidroenergiya olish, baliqchilikda foydalanish, yog'och oqizish kiradi.

Tabiiy manbalardan suv olb foydalanishda daryolardan, ko'llardan, yer osti suvidan yoki suv omborlaridan olinadigan suvning bir qismi butunlay sarflanib (bug'lanish, yerga shimilib), qolgan bir qismi ifloslanib tabiiy manbalarga qo'shiladi.

Yer kurrasi bo'yicha sanoatda, isisqlik elektr stansiyalarida K.S. Losev

(1989) ma'lumotiga ko'ra, yiliga 670 km^3 atrofida suv ishlatiladi, buning 320 km^3 issiqlik elektr stansiyalariga to'g'ri keloadi. O'sha 640 km^3 suvning 400 km^3 ifloslangan yoki yarim tozalangan holda (shundan 320 km^3 issiqlik elektr stansiyalardan chiqqan iflos-issiq suv) tabiiy manlarga tashlanadi. Qolgan 270 km^3 esa bug'lanish, shimilish va boshqalar hisobiga yo'q bo'lib, tabiiy havzalarga qaytib tushmaydi. So'nggi paytlarda ko'pgina sanoat korxonalarida suvdan aylanma usulida foydalanishga o'tish tufayli tabiiy manbalardan (daryo, ko'l, yer osti suvlaridan) olinayotgan suvlar 50% ga qisqargan.

Yer shari aholisining tez o'sishi chuchuk suvga bo'lgan talabni kun sayin ortib boriiga sababchi bo'lmoqda. Yer shariga jon boshiga maishiy xo'jalik ehtiyojlari uchun (ichish, ovqat pishirish, yuvinish, kir yuvish va turmushning boshqa sohalari uchun) shaharlarda B. Kitanovich (1985) ma'lumotiga ko'ra, sutkada o'rtacha 150 l yoki bir yilda 55 m^3 , qishloqlarda sutkada 50 l yoki bir yilda 18 m^3 chuchuk suv sarflanadi. Binobarin, 1987 yil ma'lumotiga ko'ra Yer kurrasida 5,0 mlrd. kishi yashab, faqat maishiy ehtiyoji uchun bir yilda 159 km^3 suv iste'mol qilgan. Buning 108 km^3 ni shahar aholisi, 51 km^3 ni esa qishloq aholisi sarflamoqda. Bundan tashqari, shaharlarda jon boshi hisobiga bir sutkada oziq-ovqat sanoati va savdo shaxobchalarida 100 l, ko'chalarga suv sepish va o'simliklarni sug'orish uchun esa sutkada 100 l suv sarflanadi. Shunday qilib, shahar aholisi yana maishiy ehtiyojidan tashqari sutkada 200 l yoki bir yilda 75 km^3 suv sarflar ekan. Demak, dunyo aholisi (shahar aholisining ko'chaga sepilgan va o'simliklarni sug'orishiga ketgan suvini ham hisobga olsak) bir yilda 234 km^3 chuchuk suv sarflaydi. Yer kurrasida maishiy xo'jalik ehtiyojlar uchun bir yilda ishlatiladigan suvning (234 m^3) 20% i butunlay sarflanib ketadi, g'qolgan 80% i ifloslangan yoki yarim tozalangan holda daryolarga, kanal va ariqlarga tashlanadi va chuchuk suvni ifloslab yuboradi. Toshkent shahrida jon boshiga sutkada maishiy xo'jaliklari uchun 300 litrgacha suv sarflangan bo'lsa, bir yilda $0,2 \text{ km}^3$ dan ko'p suv kerak bo'ladi. Bu Chirchiq daryosini yillik suv miqdorining 3% ni tashkil etadi.

Hozir Yer kurrasida sanoat (issiqlik elektr stansiyalarda ishlatilgan suvlar ham kiradi) da va kishilarga maishiy xo'jaligida yiliga K.S. Losev (1989) ma'lumotiga ko'ra 900 km^3 atrofida chuchuk suv ishlatilib, shuning 700 km^3 yarim tozalangan yoki tozalanmagan holda daryolarga tashlansa, qolgan 200 km^3 butunlay sarflanib ketadi. O'sha 700 km^3 qisman tozalangan tashlandiq suv esa 7100 km^3 toza daryo suvini ifloslaydi.

Dunyo bo'yicha sug'orma dehqonchilikda eng ko'p suv iste'mol qilinadi. Hozir dunyoda 200 mln. gektar yerni sug'orish uchun yiliga daryolardan va yer ostidan 2800 km^3 suv olinadi. Bu dunyodagi daryolarning yalpi oqimining 7% iga teng. O'sha olingan 2800 km^3 suvning 17% yoki 470 km^3 qaytarma suvi ko'rinishida daryolarga va yer osti suviga qo'shiladi, qolgan 83% i (2330 km^3) esa butunlay sarflanib ketadi (Egamberdiyev R.T., 1988).

Shunday qilib, yer kurrasida sanoat, maishiy xo'jalik, qishloq xo'jalik va boshqa xo'jalik iste'moli uchun yiliga 3930 km^3 chuchuk suv ishlatilib, uning 120 km^3 daryolarga, oz qismi (qishloq xo'jaligida) esa yer osti suvlariga qayta

qo'shilib, uni ifloslamoqda. 1220 km^3 iflos ishlatilgan suvlar tozalanib, ba'zi yerlarda tozalanmasdan daryolarga tashlash oqibatida yiliga 11000 km^3 chuchuk daryo suvini ifloslaydi. Bu butun dunyo daryolari oqimining 32% i demakdir. Shundan ko'rinib turibdiki, Yer sharida chuchuk suvning yetishmaslik xavfi uning sug'orishda, sanoatda, maishiy xo'jalikda foydalanish natijasida kamayishi emas, balki o'sha xo'jalikda foydalanilgan suvning bir qismini oqova, chiqindi suvlarga aylanib, yana daryolarga qo'shilishidan uning suvining ifloslanishidadir.

K.S. Losev (1989) ma'lumotiga ko'ra, 2000 yilga borib dunyo xalq xo'jalik iste'moli uchun 4780 km^3 suv olinib, shuni 3030 km^3 sug'orishga sarflanadi, qolgan 1290 km^3 sanoat, maishiy kommunal va boshqa soha iste'moliga ketadi. Natijada o'sha sarflangan 4780 km^3 suvning 1345 km^3 ifloslangan yoki yarim tozalangan holda suv havzalariga chiqarib tashlanadi.

Hozirgi dunyodagi sanoati o'sgan, aholisi, ayniqsa, shahar aholisi ko'p va sug'orma dehqonchiligi rivojlangan ba'zi mamlakatlardagi daryolar ishlatirgan, chiqindi – oqova suvlar bilan juda ham ifloslanib, ichish uyoqda tursin, hatto cho'milish va kir yuvishga ham yaroqsiz holga keltirilgan (GFR, Gollandiya, Daniya, AQSh, Yaponiya, Fransiya kabi davlatlarning ba'zi daryolari). Bular esa o'z navbatida o'sha davlatlarda chuchuk suv tanqisligini vujudga keltirgan. Hozirning o'zida sayyoramizdagi 1 mlrd. dan ortiq aholi chuchuk suv yetishmasligini boshidan kechirmoqda.

M.I. Lvovichning ma'lumotiga ko'ra, dunyodagi daryo suvlaridan tejab, to'g'ri foydalanilsa, uni toza saqlansa, 60-100 mlrd. kishini chuchuk suvga bo'lgan talabini (sanoat va qishloq xo'jaligidagi suv iste'moli ham kiradi) bemaol qondirish mumkin. Buning uchun quyidagi masalalarni jahon miqyosida amalga oshirish kerak: birinchidan, tashlandiq suvlarning chuchuk suvlar bilan aralashtirishni butunlay man etish; ikkinchidan, ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash orqali sanoatda chuchuk suvdan foydalanish normasini minimal darajaga tushirishga erishish; uchinchidan, sanoatda yopiq – aylanma suv sistemasiga o'tish; to'rtinchidan sanoat va maishiy xo'jalikdan chiqqan iflos suvlarni to'la tozalashga erishish; beshinchidan, qishloq xo'jaligida suvdan (ilg'or agrotexnikani joriy qilib) minimal foydalanishga erishish; oltinchidan, irrigasiya shoxobchalarining foydali ish koeffitsiyentini ko'tarishga erishish; yettinchidan, qishloq xo'jaligidan chiqqan qaytarma suvlarni iloji boricha daryolarga tashlamaslikka erishish.

Hozir O'zbekistonda xalq xo'jaligining turli sohalari uchun yiliga $71,69 \text{ km}^3$ suv sarflanadi. Shuning $60,39 \text{ km}^3$ sug'orishga, qolgan qismi esa ($11,30 \text{ km}^3$) sanoat, maishiy-kommunal va boshqa sohalarga ishlatiladi. Sug'orishga olinayotgan suvning faqat $10,07 \text{ km}^3$ qaytarma suvga aylanadi, qolgan qismi butunlay sarflanib ketadi.

Respublikamiz sanoati, maishiy-kommunal xo'jaligi va boshqa sohalariga sarflangan (yiliga $11,30 \text{ km}^3$) suvning bir qismi tozalanib, bir qismi chala tozalanib, yana bir qismi butunlay tozalanmasdan suv havzalariga chiqarilib tashlanib, ularni ifloslamoqda. O'zbekistonda olingan chuchuv suvning 92%i

qishloq xo'jaligida, 6% i sanoatda, 0,5 %i kommunal xo'jaligida, 1,5%i bug'lnib ketib sarflanadi, Turkmanistonda olingan chuchuk suvning 72% i qishloq xo'jaligida, 2% i sanoatda, 0,5% i kommunal xo'jalikda sarflansa, 25,5% i bug'lanib ketadi.

Tabiiy manbalardan suv olmasdan (oqimdan) foydalanishga daryo va ko'llarda kema qatnovi, energiya olish, baliq ovlash va yog'och oqizish kiradi. Daryo va ko'l suvlaridan energiya olishda, transportda, yog'och oqizishda va baliq ovlashda ular suvlarining faqat oqimidan foydalaniladi. Bunda suv miqdori kamaymaydi, lekin ba'zan kemalardan tushgan neft mahsulotlari va yog'och oqizish natijasida ifloslanadi, motorlar ovozi esa baliqlarga salbiy ta'sir etishi mumkin, xolos.



3. TABIATNI MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDAGI QONUN

3.1. Qonunga kiritilgan muvofiq o'zgartirishlar

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish t'g'risida"gi qonuni 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan. Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

O'zR 06.05.1995 y. 70-I-son Qonuni,
O'zR 25.04.1997 y. 421-I-son Qonuni,
O'zR 25.12.1998 y. 729-I-son Qonuni,
O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni,
O'zR 31.08.2000 y. 125-II-son Qonuni,
O'zR 30.08.2002 y. 405-II-son Qonuni,
O'zR 30.08.2003 y. 535-II-son Qonuni,
O'zR 30.04. 2004 y. 621-II-son Qonuni,
O'zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni

Ushbu qonun tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. qonunning maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir.



Qonun muhokamasi

3.2. Qonunning boblari, moddalari va undagi qoidalar

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlari

O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlar ushbu qonun bilan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari to'g'risidagi, atmosfera havosini, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish to'g'risidagi qonunlari bilan, boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlari bilan ham tartibga solinadi.

2-modda. Tabiatni muhofaza qilish ob'ektlari, alohida muhofaza

qilinadigan tabiat hududlari va obyektlari

Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo'lishdan, yo'q bo'lib ketishdan, oqilona foydalanmaslikdan muhofaza etilishi lozim.

Davlat qo'riqxonalari, milliy, tarixiy-tabiiy va yodgorlik bog'lari, zakazniklar, tabiat yodgorliklari, botanika va zoologiya bog'lari, dendrariya bog'lari, shuningdek Xalqaro qizil kitobga va O'zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar hamda o'simliklar alohida muhofaza qilinadigan tabiat hududlari va ob'ektlari jumlasiga kiradi.

Kurort va rekreatsion joylar, yer usti va yer osti suvlari to'planadigan joylar (daryo vodiylari, adirlar, tog' yon bag'irlari) nodir va qimmatbaho metallar konlari, suv ob'ektlarining sohilbo'yi mintaqalari va suvni muhofaza etish joylari (mintaqalari), alohida muhofaza qilinadigan tabiat hududlarining qo'riqlanadigan (bufer) joylari, baliqchilik xo'jaliklari joylashgan yerlar, o'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari hamda boshqa joylar O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan, xalqaro shartnomalar bilan belgilab qo'yiladigan tartibda alohida muhofaza etilmog'i kerak.

Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlari bilan alohida muhofaza qilinadigan tabiat hududlari va ob'ektlarining o'zga turlari ham nazarda tutilishi mumkin.

3-modda. Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad

Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad: inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo'lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish;

- ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat ob'ektlari xilma-xilligini saqlab qolish;
- ekologiya xavfsizligini ta'minlash;
- tabiat ob'ektlari bilan bog'liq madaniy merosni asrab qolishdir.

4-modda. Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo'jaliklar, shuningdek ayrim shaxslar xo'jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak:

insonning yashash muhiti bo'lmish biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g'amxo'rlik qilish;

fuqarolarning hayot uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining

majburiyligi;

jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg'unlashtirish;

tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun haq to'lash va umumiy asoslarda foydalanganlik uchun haq to'lamaslik;

ekologiya ekspertizasi o'tkazishning majburiyligi;

tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag'batlantirish;

tabiiy resurslarni tiklash zarurligi, atrof tabiiy muhit va inson sihat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo'lmaz oqibatlariga yo'l qo'ymaslik;

tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishda oshkoralik;

tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarini uyg'unlashtirish;

tabiatni muhofaza qilish qonunlari talablarini buzganlik uchun javobgar bo'lish.

5-modda. Tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Tabiiy resurslarni berish, ulardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilanadi.

6-modda. Tabiatdan umumiy tarzda va maxsus yo'sinda foydalanish

O'zbekiston Respublikasida tabiatdan umumiy tarzda va maxsus yo'sinda foydalaniladi.

Tabiatdan umumiy tarzda foydalanish fuqarolar tomonidan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun tekinga tabiiy resurslarni ayrim foydalanuvchilarga biriktirmay va hech qanday ruxsatnomalar bermay turib amalga oshiriladi.

Tabiatdan maxsus yo'sinda foydalanish tariqasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarga ishlab chiqarish va o'zga xil faoliyatni amalga oshirish uchun tabiiy resurslar haq olib maxsus ruxsatnomalar asosida egalik qilishga, foydalanish yoki ijaraga beriladi.

II. DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUV IDORALARINING TABIATNI MUHOFAZA ETISHGA TAALLUQLI HUQUQIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH SOHASIDAGI VAKOLATLARI

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining tabiatni muhofaza qilishga oid huquqiy

munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

(O'zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni taxriridagi modda)

(Oldingi taxririga qarang)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;

davlat ekologiya dasturlarini tasdiqlash;

tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

hududlarni favqulodda ekologik vaziyat, ekologik ofat va ekologik halokat zonolari deb e'lon qilish, bunday zonalarining huquqiy rejimini va jabrlanganlarning maqomini belgilash;

tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni muvofiqlashtirib borish;

tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun haqning chegara miqdorlarini belgilash, shuningdek to'lovlarni undirish bo'yicha imtiyozlar belgilash;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish.

8-modda. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning davlat boshqaruvi

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan foydalanishning davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, davlat boshqaruvi mahalliy idoralari amalga oshiradilar.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

Tabiatni muhofaza qilish sohasida:

tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosat yuritish;

tabiat resurslaridan foydalanishni tartibga solish; tabiiy resurslarga nisbatan tabiat kadastri yuritilishi tartibini belgilash va bunday kadastr yuritilishini ta'minlash, respublika ahamiyatiga molik tabiiy resurslarning zaxiralarini tasdiqlash;

ekologiya jihatidan tang vaziyatlar, tabiiy ofatlar va falokatlarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

tabiiy ofatlar va yirik avariyaalarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

tabiiy resurslardan foydalanganlik, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik, chiqindilar, zararli ta'sir etuvchi boshqa narsalar joylashtirib tashlaganlik uchun haq to'lash tartibini, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanish, chiqindilar joylashtirish limitlarini belgilash;

ekologiya maorifi va tarbiyasi tizimini yaratish hamda uning amal qilishini ta'minlash;

tabiatdan alohida tartibda foydalaniladigan hududlarning chegaralarini,

tabiatni muhofaza qilish va xo‘jalik faoliyati rejimlarini tasdiqlash;

tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish;

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolat doirasiga kiradi.

10-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari

Tabiatni muhofaza qilish sohasida:

o‘z hududida tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, mintaqaning (hududning) ekologiya dasturini tasdiqlash;

tabiiy resurslarni hisobga olish va ularning ahvoliga baho berish, ekologiya jihatidan zararli bo‘lgan ob'ektlarni ro‘yxatga olish;

tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta'minlash;

tabiiy resurslardan foydalanish huquqini beruvchi, sanoat chiqindilarini yoki ro‘zg‘or chiqindilarini to‘plash yoki ko‘mib tashlashga ruxsatnomalarni belgilangan tartibda berish yoki ularni bekor qilish;

tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlar undirish;

tabiatning muhofaza qilinishi ustidan nazorat o‘rnatish, atrof muhitga zarar yetkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik ob'ektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to‘xtatish va qayta ixtisoslashtirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida ko‘zda tutilgan boshqa masalalarni tartibga solish davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining vakolatiga kiradi.

11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga bo‘ysunadi hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek ayrim shaxslar tomonidan yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmon, hayvonot va o‘simlik dunyosidan, atmosfera havosidan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishga doir qonunlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi (O‘zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni tahriridagi qism).

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdiqlaydigan Nizom bilan belgilanadi (O‘zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni taxriridagi qism).

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlar davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar uchun majburiydir.

III. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING TABIATNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

12-modda. Insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi va bu muhitni saqlab qolish borasidagi burchi

O'zbekiston Respublikasi aholisi o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega.

Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, tabiat boyliklariga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lishi, ekologiya talablariga rioya etishi shart.

13-modda. Tabiatni muhofaza qilish jamoat birlashmalarining vakolatlari
Tabiatni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi jamoat birlashmalarining vakolatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq qabul qilingan ustavlarida belgilab qo'yiladi.

IV. ATROF TABIIY MUHIT SIFATINI NORMATIVLAR BILAN TARTIBGA SOLISH

14-modda. Atrof tabiiy muhit sifatining normativlari va standartlari

Xo'jalik faoliyatining atrof tabiiy muhitga zararli ta'siri atrof tabiiy muhit sifatining aholining ekologiya jihatidan xavfsizligini, tabiiy resurslarni tiklash va muhofaza qilishni kafolatlovchi normativlari va standartlari bilan cheklab qo'yiladi.

qududiy-ishlab chiqarish majmuilarini tarkib toptirishda, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilishni rivojlantirishda hamda shaharlar, boshqa aholi punktlarini qayta qurish va ta'mirlashda atrof tabiiy muhitga bo'ladigan ta'sirning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan me'yorlari belgilanadi.

15-modda. Ekologik normativlarni ishlab chiqish va tasdiqlash

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar atrof muhitga ta'sirning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan eng yuqori darajalarini tartibga soluvchi ekologik va boshqa yo'sindagi mezonlarni ishlab chiqishlari shart.

Ekologik normativlarni o'zlariga berilgan vakolatlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tasdiqlaydilar. (O'zR 03.12.2004 y. 714-HH-son Qonuni taxriridagi qism)

Kimyoviy dori-darmonlarni qishloq xo'jaligida ishlatishga O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ruxsat etiladi.

V. TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLISH

16-modda. Tabiatdan foydalanishga yo'l qo'yilishi

Tabiatdan foydalanishga atrof tabiiy muhitni yashash uchun yaroqli holda saqlash, tabiiy resurslardan belgilangan tegishli normativlar doirasida foydalanish va qayta tiklanadigan va qayta tiklanayotgan tabiiy resurslar qayta tiklanishini ta'minlash sharti bilan yo'l qo'yiladi.

17-modda. Tuproqdan foydalanish shartlari

Tuproq deyilganida yer qobig'ining tiriklik uchun foydalaniladigan va o'simliklar bilan birga amal qiladigan yuzadagi unumdor qatlami tushuniladi.

Tuproqdan uning unumdorligini pasaytirmagan holda tabiiy va madaniy o'simliklardan hosil olish uchun foydalaniladi.

Tuproqning inshoot ostida qoladigan gumusli qatlami boshqa joylarda hosildorlikni oshirish uchun olib ketilishi kerak.

18-modda. Yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan foydalanish shartlari

Yer osti boyliklari deyilganida yer qobig'ining yuqori qismini qamrab oluvchi, tadqiqotlar o'tkazish va foydali qazilmalar kavlab olish mumkin bo'lgan sath, foydali qazilmalar deyilganida esa iqtisodiy va sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik geologik hosilalar tushuniladi.

Yer osti boyliklari va foydali qazilmalardan quyidagi shartlar bilan foydalaniladi:

qazib olishda ana shu boylik va qazilmalar hamda ularga qo'shib chiqadigan boshqa tabiiy resurslardan kompleks va oqilona foydalanish ta'minlansa, shuningdek atrof tabiiy muhit va yer osti boyliklari ifloslanishining oldi olinsa;

foydali qazilmalarni kavlab olish chog'ida holati o'zgargan yerlar rekultivatsiya qilinsa;

qayta tiklanadigan foydali qazilmalardan tabiiy qayta tiklanishiga erishiladigan darajadagina foydalanilsa.

19-modda. Suvlar va suv havzalaridan foydalanish shartlari

O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer usti, yer osti va dengiz suvlaridan zarur miqdordagi suvning tabiiy aylanishini saqlash, uning normativda ko'rsatilgan darajada tozaligini ta'minlash, suv o'simliklari va hayvonlarini asrash, suv havzalarining ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, ularda ekologiya muvozanatini saqlash va suv havzasiga landshaft elementi sifatida ziyon yetkazmaslik sharti bilan yo'l qo'yiladi.

Mahalliy hokimiyat idoralari, o'rmon va suv xo'jaligi idoralari daryo irmoqlari hosil bo'ladigan joylarda, suv havzalari sohili mintaqalarida

daraxtzorlarni tiklashlari va dov-daraxtni ko'paytirishlari hamda ularning saqlanishini ta'minlashlari shart.

20-modda. Atmosfera havosidan foydalanish shartlari

Atmosfera havosi deyilganida O'zbekiston Respublikasi hududi ustidagi havo bo'shlig'i tushuniladi. qavodan foydalanishga muayyan hudud havosining sifatini o'zgartirmaslik, uni belgilangan normativlardan ortiq darajada ifloslantirmaslik yoki siyraklashtirmaslik sharti bilan yo'l qo'yiladi.

Xalqaro bitimga muvofiq vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, xususiy shaxslar ozon qatlamiga zararli ta'sir etuvchi kimyoviy moddalar ishlab chiqarish hamda bunday moddalardan foydalanishni qisqartirishlari va kelgusida batamom to'xtatishlari shart.

21-modda. Jonli tabiat ob'ektlaridan foydalanish shartlari

Jonli tabiat deyilganida tabiiy o'simliklar, shu jumladan o'rmon, tabiatda erkin yashaydigan hayvonlar va boshqa jonli organizmlar tushuniladi.

Jonli tabiat ob'ektlaridan:

ularning qayta tiklanish qobiliyatini saqlash;

ularning xilma-xil turini va to'dalarining barqarorligini saqlash;

atrof tabiiy muhitning biologik jihatdan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik sharti bilan foydalaniladi.

22-modda. Chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish shartlari

(O'zR 30.08.2002 y. 405-II-son Qonuni taxriridagi modda)

Chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olib boriladi.

CHiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishning atrof muhitga xavfsizligi uchun chiqindilarning mulkdorlari javob beradilar. CHiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish ob'ektlarini tegishli hududga joylashtirish masalalarini mahalliy davlat hokimiyati organlari hal qiladi.

23-modda. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqidan mahrum etish

Tabiiy resurslardan foydalanish talablarini muttasil buzadigan foydalanuvchi tabiiy resurslardan foydalanish huquqidan mahrum etilishi mumkin.

VI. EKOLOGIYA EKSPERTIZASI

24-modda. Davlat ekologiya ekspertizasi

(O'zR 31.08.2000 y. 125-II-son Qonuni taxriridagi modda nomi)

Davlat ekologiya ekspertizasi xo'jalik qarori qabul qilinishidan oldin o'tkazilishi shart bo'lgan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish tadbiridir.

Davlat ekologiya ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi. O'zR 31.08.2000 y. 125-II-son Qonuniga muvofiq uchinchi xat boshi chiqarib tashlangan.

Davlat ekologiya ekspertizasining maqsadi mo'ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik faoliyati yoki o'zga faoliyatning ekologiya jihatdan qay darajada xavfli ekanligini aniqlash, bu xildagi faoliyat tabiatni muhofaza qilish qonunlarining talablariga qanchalik muvofiqligini baholash, loyihalarda nazarda tutilayotgan tabiatni muhofaza qilish tadbirlarining qay darajada yetarli va asosli ekanligini aniqlashdan iboratdir.

25-modda. Davlat ekologiya ekspertizasining obyektlari

Davlat ekologiya ekspertizasining ob'ektlari qonunchilikga muvofiq o'rnatiladi (O'zR 31.08.2000 y. 125-II-son Qonuni taxriridagi qism).

Davlat ekologiya ekspertizasining ijobiy xulosasisiz loyihalarni ro'yobga chiqarish man etiladi.

O'zR 31.08.2000 y. 125-II-son Qonuniga muvofiq 26-modda o'z kuchini yo'qotgan.

26-modda. Davlat sanitariya-ekologiya ekspertizasi

Davlat sanitariya-ekologiya ekspertizasi atrof tabiiy muhit ifloslanishining inson salomatligiga qanchalik zararli ta'sir ko'rsatishini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Davlat sanitariya-ekologiya ekspertizasi sog'liqni saqlash idoralarining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning tashabbusiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tayinlanadi.

Davlat sanitariya-ekologiya ekspertizasini o'tkazish tartibi va usullarini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza etish davlat qo'mitasi bilan kelishib turib tasdiqlaydi.

27-modda. Jamoatchilik asosidagi ekologiya ekspertizasi

Jamoatchilik asosidagi ekologiya ekspertizasi jamoat birlashmalarining tashabbusiga ko'ra ularning mablag'lari hisobidan yoki jamoatchilik asosida mutaxassislarning mustaqil guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

Jamoatchilik asosidagi ekologiya ekspertizasining xulosalari tavsiya tamoyiliga ega bo'ladi.

VII. EKOLOGIK NAZORAT

28-modda. Atrof tabiiy muhit monitoringi

O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslarini kuzatish, hisobga olish, ularga baho berish va ularning istiqbolini belgilashni ta'minlash maqsadida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimi tashkil etiladi.

Atrof tabiiy muhitning holati, tabiiy resurslardan foydalanish ustidan kuzatuv maxsus vakolat berilgan idoralar, shuningdek faoliyati atrof tabiiy muhitning holatini yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

Maxsus vakolat berilgan idoralar, shuningdek aytib o'tilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'z kuzatuvlariga doir materiallarni tegishli davlat idoralariga bepul berishlari shart.

Monitoring tuzilishi, mazmuni va uni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

29-modda. Ekologik nazorat vazifalari

Ekologik nazorat oldiga:

atrof tabiiy muhit holatini hamda xo'jalik yuritish va boshqa faoliyat ta'siri ostida unda bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatib borish;

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajarilishini tekshirish vazifasi qo'yilgan.

Ekologik nazorat tizimi davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat, idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazoratidan iborat.

30-modda. Davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati

Davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati tabiiy muhitda sodir bo'layotgan fizik, kimyoviy, biologik jarayonlarni, atmosfera havosi, tuproq, yer usti va yer osti suvlarining ifloslanish darajasini, ifloslanishning o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri oqibatlarini kuzatib borish, manfaatdor tashkilotlar va aholini atrof tabiiy muhitda bo'layotgan o'zgarishlar haqida joriy va shoshilinch axborotlar hamda bu muhit holatiga doir tahminlar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

Atrof tabiiy muhit holati to'g'risidagi axborot ochiq-oshkora yo'sinda bo'lib, uning asosiy ko'rsatkichlari davlat tabiatni muhofaza etish idoralari tomonidan e'lon qilish uchun muntazam berib boriladi.

Davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari falokatlar va boshqa hodisalar natijasida atrof tabiiy muhit normativda belgilanganidan ham ortiqroq darajada ifloslangan taqdirda bunday falokat va hodisalar to'g'risida jamoatchilikni darhol xabardor etishlari shart.

Tabiiy resurslarning miqdor, sifat va boshqa xil ko'rsatkichlarini, ulardan foydalanishning hajmi, tartib tamoyilini hisobga olib borish uchun davlat tabiiy resurslar kadastrlari yuritiladi.

Atrof tabiiy muhit holatiga zararli ta'sir qiladigan yoki nomaqbul tarzda ta'sir etishi mumkin bo'lgan ob'ektlar, atrof tabiiy muhitga tushadigan zararli moddalarning turlari va miqdori, chiqindilarning hajmlari va tarkibi ham nazorat etib boriladi va davlat hisobiga olinadi. (O'zR 30.08.2003 y. 535-II-son Qonuni taxriridagi qism)

Davlat atrof tabiiy muhit holatini nazorat etish xizmatining tarkibi, uni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi tartibi, davlat tabiiy resurslar kadastrlarini, atrof muhitga zararli ta'sir etuvchi ob'ektlarning davlat hisobini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladi.

31-modda. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, maxsus vakolatli davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (O'zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni taxiridagi xat boshi), (Oldingi taxriga qarang);

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (O'zR 25.12.1998 y. 729-H-son Qonuni taxiridagi xat boshi);

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (O'zR 25.12.1998 y. 729-H-son Qonuni taxiridagi xat boshi);

O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi (O'zR 03.12.2004 y. 714II-son Qonuni taxiridagi xat boshi).

Maxsus vakolatli davlat tabiatni muhofaza qilish idoralari tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshirishda qatnashishga idoraviy ekologik xizmat bo'linmalarini belgilangan tartibda jalb etishlari mumkin.

32-modda. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazorati

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ekologiya xizmati shu vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati ustidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi idoraviy nazoratni amalga oshiradi.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ishlab chiqarish nazoratini korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ekologiya xizmati amalga oshiradi va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning talablari bajarilishi yuzasidan dasturlar hamda ayrim tadbirlar ijrosini tekshirish maqsadini ko'zlaydi.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi jamoat nazoratini jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, fuqarolar amalga oshiradilar.

Idoraviy, ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiruvchi ekologiya xizmatlarini va ekologiya sohasidagi jamoat nazoratini tashkil etish hamda

ularning faoliyat ko'rsatishi tartibi ushbu qonun va mazkur xizmatlar hamda jamoat nazorati to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solib boriladi.

VIII. TABIATNI MUHOFAZA QILISHNI TA'MINLASHNING IQTISODIY CHORA-TADBIRLARI

33-modda. Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy tartiboti
Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy tartiboti:

tabiiy resurslardan maxsus foydalanganlik uchun, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik (shu jumladan chiqindilarni joylashtirganlik) va atrof tabiiy muhitga boshqacha tarzda zararli ta'sir ko'rsatganlik uchun to'lov undirishni;

kamchiqimli va resurslarni tejaydigan texnologiyalar joriy etilganida, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni qayta tiklashda samara beruvchi faoliyat amalga oshirilganida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek ayrim shaxslarga soliq, kredit imtiyozlari va o'zga imtiyozlar berishni;

ekologiya nuqtai nazaridan xavfli texnologiyalarni qo'llanganlik va o'zga faoliyatni amalga oshirganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga nisbatan maxsus soliqlar joriy etishni;

atrof tabiiy muhitni ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish, oqizish yoxud ekologiya nuqtai nazaridan o'zga zararli faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar (ruxsatnomalar) olishni;

tabiiy muhitning qulay holatini buzgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar zimmasiga uni tiklash vazifasini yuklashni;

tabiat ob'ektlarini buzish yoki yo'q qilib yuborish oqibatida yetkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda tovon puli undirishni;

tabiatni muhofaza qilish borasidagi rejalar va chora-tadbirlar bajarilmagan, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning normativ-texnik va boshqa talablari buzilgan hollarda mansabdor shaxslar yoki boshqa xodimlarni asosiy ishlab chiqarish faoliyatida erishilgan natijalar bo'yicha beriladigan pul mukofotlari yoki boshqa mukofotlardan to'liq yoki qisman mahrum etishni;

ekologik sof mahsulot chiqarganlik uchun rag'batlantiruvchi narxlar va ustama haqlar belgilashni;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik, me'yorda belgilanganidan ortiqcha foydalanganlik uchun tabiatdan foydalanuvchilarga nisbatan iqtisodiy jazo choralarini hamda tabiiy resurslardan tejab-tergab va oqilona foydalanganlik uchun iqtisodiy rag'batlantirishni qo'llanishni;

tabiiy muhitni saqlash sohasida va ekologik sof mahsulot ishlab chiqarishda hammadan yuqori ko'rsatkichlarga erishgan davlat, kooperativ, jamoat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari, boshqa korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarning jamoalarini va ayrim xodimlarini, shuningdek ayrim shaxslarni moddiy rag'batlantirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlarida, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarida tabiatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni iqtisodiy rag'batlantirishning boshqa turlari ham nazarda tutilishi

mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni iqtisodiy rag'batlantirish tadbirlari O'zbekiston Respublikasi qonunlarida, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarida belgilab qo'yiladigan tartibda qo'llaniladi.

34-modda. Tabiatdan maxsus foydalanganlik va atrof muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar

Tabiatdan maxsus foydalanganlik va atrof muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek atrof muhitni ifloslantirganlik (ifloslantiruvchi moddalarni chiqarganlik, oqizganlik va chiqindilarni joylashtirganlik) uchun kompensatsiya to'lovlaridan, tabiiy resurslarni muhofaza qilganlik va qayta tiklaganlik uchun to'lovlardan iborat bo'ladi.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq stavkalari va boshqa majburiy to'lovlarning miqdorlari, shu jumladan ijara to'lovining miqdori tabiiy resurslarning qay darajada keng tarqalganligi, sifati, ularni qayta tiklash imkoniyatlari, ulardan foydalanishning qay darajada qulayligi, kompleksligi, samaradorligi, ularning joylashgan yeri, chiqindilarni qayta ishlash va ulardan foydalanish imkoniyatlari hamda boshqa jihatlarni inobatga olgan holda, shuningdek tegishli limitlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi va tasdiqlanadi.

Atrof muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarning miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Tabiiy resurslarni muhofaza qilganlik va qayta tiklaganlik uchun to'lovlarning miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tabiatdan foydalanuvchi korxonalar mahsulotlarining (bajargan ishlarining, ko'rsatgan xizmatlarining) tannarxiga qo'shiladi.

Atrof muhitni ifloslantirganlik uchun, shuningdek tabiatdan limitda (normativda) belgilanganidan tashqari va o'zgacha tarzda nooqilona maxsus foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lovlari yuridik shaxsning daromadidan (foydasidan) undiriladi.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik, ularni muhofaza qilganlik va qayta tiklaganlik uchun to'lov Davlat byudjetiga tushadi.

Atrof muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarganlik va oqizganlik hamda chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarning summolari tabiatni muhofaza qilish jamg'armalariga tushadi.

Tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar va atrof muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari bo'yicha imtiyozlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarni va atrof muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini to'laganlik yuridik va jismoniy shaxslarni ekologiya tadbirlarini bajarishdan va yetkazilgan zararining o'rnini qoplash majburiyatidan ozod etmaydi (O'zR 30.08.2003 y. 535-II-son Qonuni taxriridagi modda).

35-modda. Tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini pul bilan ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi idoralari huzurida tabiatni muhofaza qilish respublika jamg'armasi hamda mahalliy jamg'armalari tashkil etiladi.

Tabiatni muhofaza qilish jamg'armalarini tarkib toptirish va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari to'g'risidagi nizom bilan belgilab qo'yiladi.

Tabiatni muhofaza qilish jamoat fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi va o'z faoliyatini amalga oshiradi (O'zR 30.04. 2004 y. 621-II-son Qonuni taxriridagi qism).

36-modda. Ekologiya sug'urtasi

O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar sifatining yomonlashuvi oqibatida zarar yetishi hollarini nazarda tutib korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mol-mulki hamda daromadlari, fuqarolarning hayoti, salomatligi va mol-mulki ixtiyoriy hamda majburiy sug'urta qilinadi.

Ekologiya sug'urtasining tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilab qo'yiladi.

37-modda. Tabiatni muhofaza qilish tizimidagi rag'batlantirish

Tabiatdan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni rag'batlantirish:

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirganlari taqdirida ularga soliq solishda imtiyozlar berish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiat muhofazasini ta'minlash borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun imtiyozli shartlarda qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar (ssudalar) berish;

asosiy ishlab chiqarish fondlari uchun yuqori amortizatsiya normalari belgilash;

O'zR 30.08.2003 y. 535-II-son Qonuniga muvofiq beshinchi xat boshi chiqarib tashlangan

atrof tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarish va oqizish hamda chiqindilarni joylashtirish barqaror sur'atda pasaytirib borilgan taqdirda bunday moddalarni chiqarganlik va oqizganlik hamda chiqindilarni joylashtirganlik

uchun to'lovlarni kamaytirish;

tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari mablag'larining bir qismini ifloslantiruvchi moddalar chiqarish va oqizishni kamaytirish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish maqsadida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslarga foizli qarzlar sifatida shartnoma asosida berish orqali amalga oshiriladi.

IX. FAVQULODDA EKOLOGIYA VAZIYATLARI

38-modda. Falokatlarni va ularning ekologiyaga zararli oqibatlarini bartaraf etish

Falokat sodir bo'lgan taqdirda korxona, muassasa yoki tashkilotlar favqulodda ekologiya vaziyatlariga mo'ljallangan o'z harakat rejalariga muvofiq falokatni bartaraf etishga darhol kirishishlari shart. Ayni vaqtda ular falokat haqida va uni bartaraf etish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralariga, davlat tabiatni muhofaza qilish idoralariga, shuningdek bunday falokatlarning ekologiyaga zararli oqibatlarini bartaraf etishga ixtisoslashgan xizmatlarga darhol xabar qiladilar.

39-modda. Favqulodda ekologiya vaziyati va ekologiya ofati mintaqalari

Xo'jalik faoliyati va boshqa yo'sindagi faoliyat, tabiat stixiyali kuchlarining vayron etuvchi ta'siri yoxud ro'y bergan falokat yoki halokat natijasida muayyan hududlarning, shu jumladan suv va havo bo'shlig'ining atrof tabiiy muhitda inson salomatligiga, tabiiy ekologiya tizimlarining, o'simlik va hayvonlar genetik fondlarining holatiga tahdid soluvchi barqaror salbiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan qismi favqulodda ekologiya vaziyati mintaqalari deb e'lon qilinadi.

Muayyan hududning tabiat muvozanati, tabiiy ekologiya tizimlari buzilishi bilan bog'liq holda tabiiy muhitda barqaror yoki tuzatib bo'lmas o'zgarishlar ro'y bergan yoki ro'y berayotgan qismi ekologiya ofati mintaqalari deb e'lon qilinadi.

Favqulodda ekologiya vaziyati yoki ekologiya ofati mintaqalari deb e'lon qilish to'g'risidagi qaror qonunlarda belgilab qo'yilgan tartibda qabul qilinadi.

Favqulodda ekologiya vaziyati va ekologiya ofati mintaqalarida shu vaziyatni keltirib chiqargan ishlar to'xtatib qo'yiladi, atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir etuvchi faoliyat (aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat bundan mustasno) taqiqlanadi, tabiiy muhitni tiklash va sog'lomlashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

40-modda. Ekologiya nuqtai nazaridan xavf tug'diradigan vaziyatlar

Ekologiya nuqtai nazaridan xavf tug'diradigan vaziyatlar deganda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan birinchi darajali xavfli moddalar jumlasiga kiritilgan o'ta zaharli, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar, radioaktiv va boshqa moddalarni saqlash, tashish va ulardan foydalanish chog'ida atrof tabiiy muhitning ortiqcha darajada

ifloslanishi, tabiat tizimlarining shikast topishi, inson salomatligi va hayotiga ziyon yetishi tahdidi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar tushuniladi.

Ekologiya nuqtai nazaridan xavf tug'diradigan vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining idoralari tegishli ishlab chiqarish ob'ektlari atrofida, transport magistral yo'llari bo'ylab alohida huquqiy tartib o'rnatadilar.

X. XO'JALIK FAOLIYATI VA BOSHQA YO'SINDAGI FAOLIYATGA DOIR EKOLOGIYA TALABLARI

41-modda. Korxonalar, inshootlar va boshqa ob'ektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish va ularni tugatishga doir ekologiya talablari

Korxonalar, inshootlar va boshqa ob'ektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiyalash, kengaytirish va texnika bilan qayta uskunalash, ulardan foydalanish va ularni tugatish chog'ida ekologiya xavfsizligi talablari bajarilmog'i, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlari nazarda tutilmog'i lozim.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, ayrim shaxslar chiqitsiz va kamchiqit texnologiyalarni joriy etishlari, chiqindilarning hosil bo'lishini kamaytirishlari, ularni zararsizlantirishlari va qayta ishlashlari, chiqindilarni navlarga ajratish, to'plash, ko'mib tashlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etishlari shart. (O'zR 30.08.2003 y. 535-HH-son Qonuni taxriridagi qism)

Faoliyati atrof tabiiy muhitga ancha zararli ekologik ta'sir etishi mumkin bo'lgan yirik xalq xo'jalik ob'ektlarini rivojlantirish va joylashtirish to'g'risidagi qarorlar davlat ekologiya ekspertizasi xulosasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi. (O'zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni taxriridagi qism)

Ekologiya talablariga javob bermaydigan ob'ektlarni foydalanishga topshirish man etiladi.

42-modda. Radioaktiv va kimyoviy moddalarni ishlatish paytidagi ekologiya talablari

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim fuqarolar radioaktiv va kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish, qo'llash, zararsizlantirish hamda ko'mib tashlash chog'ida ekologiya talablariga, belgilangan normativlar va qoidalarga rioya qilishlari, ularni qo'llashning zararli oqibatlari oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishlari, mazkur normativlardan oshib ketilgani taqdirda radiatsiya va kimyoviy xavfsizlikni ta'minlash idoralarini darhol xabardor etishlari shart.

Radioaktiv chiqindilarni va kimyoviy moddalarni ko'mib tashlash uchun ruxsatnoma mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda davlat sanitariya va konchilik nazorati organlari bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan beriladi (O'zR 06.05.1995 y. 70-I-son Qonuni taxriridagi qism).

43-modda. Tabiatni shovqin, tebranish, elektrmagnit maydonlari
va boshqa zararli fizik ta'sirlardan muhofaza qilish

Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, ayrim shaxslar zararli ishlab chiqarish shovqinlari, tebranish, elektrmagnit maydonlarining va zararli fizik ta'sirlar ko'rsatuvchi boshqa omillarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rishlari shart.

44-modda. Tabiatni nazorat etilmaydigan va zararli biologik ta'sirlardan
muhofaza qilish

Tabiatga zararli biologik ta'sir o'tkazayotgan yoki o'tkazishi mumkin bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar bunday ta'sir oqibatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirishlari shart.

Yangi mikroorganizmlar, viruslar va shakllar hosil qilishga va foydalanishga, shuningdek ularni O'zbekiston Respublikasiga olib kelishga faqat davlat sanitariya nazoratining ijobiy xulosasi bo'lganidagina ruxsat etiladi.

45-modda. Tabiatni chiqindilar bilan ifloslanishdan muhofaza qilish
(O'zR 30.08.2002 y. 405-II-son Qonuni taxriridagi modda)

CHiqindilarni aholi punktlari yerlarida, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarda, suvni muhofaza qilish zonalari va suv ob'ektlarining sanitariya muhofazasi zonalari doirasida, fuqarolar hayoti va sog'lig'iga, shuningdek alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hamda ob'ektlarga tahdid kelib chiqishi mumkin bo'lgan boshqa joylarda saqlash va ko'mib tashlash taqiqlanadi.

Alohida hollarda, maxsus tadqiqotlar natijalariga ko'ra fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, atrof muhit xavfsizligini, tabiiy resurslar saqlanishini ta'minlash talablariga rioya etgan holda chiqindilarni yer ostiga ko'mib tashlashga yo'l qo'yiladi.

CHiqindilarni qayta ishlash, ularni poligonlarda ko'mib tashlash va saqlash tabiatni muhofaza qilish davlat organlarining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

46-modda. Ekologik sertifikatlash
(O'zR 30.08.2002 y. 405-II-son Qonuni taxriridagi modda)

Ekologik yoki gigiyenik sertifikatlarga ega bo'lmagan, shuningdek ularda belgilangan talab ko'rsatkichlaridan chetlangan holda xom ashyo va materiallardan foydalanish, texnologiya jarayonlarini joriy etish hamda tayyor mahsulotlar (shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari) chiqarish taqiqlanadi. Ekologik sertifikatlash qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ham o'tkaziladi.

Ekologik sertifikatlash tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi".

XI. TABIATNI MUHOFAZA QILISHGA DOIR QONUNLARNI

**BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK, TABIATNI MUHOFAZA QILISHGA
OID NIZOLARNI HAL QILISH**

47-modda. Tabiatni muhofaza qilishga doir qonularni buzganlik uchun
javobgarlik

Tubandagi hollarda:

tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalar va boshqa normativ-texnik talablarini buzishda, shu jumladan korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa ob'ektlarni rejalashtirish, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish chog'ida, ekologiya nuqtai nazaridan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo'yilgan ekologiya sig'imini, ekologiya normalari, qoidalarini buzishda;

tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanishda, davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarmaganlikda;

tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun belgilangan to'lovni, shuningdek atrof muhitni ifloslantirganlik va unga zararli ta'sir ko'rsatishning boshqa turlari uchun kompensatsiya to'lovlari to'lashdan bosh tortganlikda; (O'zR 30.08.2003 y. 535-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

tabiatni muhofaza qilish ob'ektlarini qurish rejalarini, tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa tadbirlarni bajarmaslikda;

atrof tabiiy muhitni tiklash, unga bo'ladigan zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf etish va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish choralarini ko'rmaganlikda;

tabiatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirayotgan idoralarning ko'rsatmalarini bajarmaganlikda;

alohida muhofaza qilinadigan hududlar va ob'ektlarning huquqiy tartibotini buzganlikda;

atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirni hisobga olish qoidalarini buzganlikda;

chiqindilarni, kimyolashtirish vositalarini, shuningdek radioaktiv va zararli kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, ulardan foydalanish, ularni zararsizlantirish va ko'mib yuborish vaqtida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzganlikda; (O'zR 30.08.2003 y. 535-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning ob'ektlarga borishiga, ayrim shaxslar va tabiatni muhofaza qilish jamoat tashkilotlariga esa o'z huquq va vazifalarini ro'yobga chiqarishlariga to'sqinlik qilganlikda;

atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslaridan foydalanish to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortganlikda aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa yo'sindagi javobgarlikka tortiladilar.

48-modda. Atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini cheklash, to'xtatib qo'yish, tugatish va o'zgartirish

Korxonalar, tashkilotlar, inshootlar va boshqa obyektlarning inson

salomatligiga yoki yashash sharoitiga, tabiiy resurslarga, alohida muhofaza qilinadigan hududlarga zararli ta'sir etgan yoki bunday ta'sir etish xavfi tug'ilgan taqdirda ularning faoliyati cheklanishi, to'xtatib qo'yilishi, zararli ta'sir etish sabablarini bartaraf etishning imkoni bo'lmagan taqdirda esa tugatilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Bunday obyektlarning faoliyatini cheklash, to'xtatib qo'yish, tugatish yoki o'zgartirish hamda ayni vaqtda ularni pul bilan ta'minlashni to'xtatish xususidagi qarorlarni davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari, o'z huquq doirasiga muvofiq tabiatni muhofaza qilish idoralari chiqaradilar.

49-modda. Tabiatni muhofaza qilish qonunlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararining o'rnini qoplash majburiyati

Atrof tabiiy muhitga zarar yetkazgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar yetkazgan zararni, shu jumladan boy berilgan foyda o'rnini qonunlarga muvofiq qoplashlari shart.

Ekologiya talablarini buzganlikda ayblanayotganlarning ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi ularni atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod etmaydi.

50-modda. Tabiatni muhofaza qilish qonunlarini buzganlik uchun iqtisodiy javobgarlik

Tabiatdan maxsus ravishda foydalanishni oqilona amalga oshirmaganlik, atrof tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarish va oqizishni, chiqindilarni joylashtirishni normativ va limitlarda belgilanganidan ko'paytirib yuborganlik uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslarga O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq oshirilgan soliq solinishi kerak (O'zR 30.08.2003 y. 535-II-son Qonuni taxriridagi qism).

Tegishli hollarda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining, tabiatni muhofaza qilish idoralarining qaroriga muvofiq aytib o'tilgan qoidabuzarliklarning sabablariga barham berilgunga qadar yuridik va jismoniy shaxslarning xo'jalik faoliyatini pul bilan ta'minlash to'xtatib qo'yilishi mumkin.

51-modda. Tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarni buzish oqibatida zarar yetkazilishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar va boshqa xodimlarning javobgarligi

Korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning atrof tabiiy muhitga, inson salomatligi va odamlarning mol-mulkiga, xalq xo'jaligiga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan chiqimdor bo'lishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar va boshqa xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan moddiy javobgar bo'ladilar.

52-modda. Ekologiya nuqtai nazaridan zararli faoliyatni to'xtatish xususidagi da'vo talablari

Yuridik va jismoniy shaxslar atrof tabiiy muhitga, inson salomatligi va

odamlarning mol-mulkiga, xalq xo'jaligiga ziyon yetkazayotgan ekologiya jihatidan zararli faoliyatni to'xtatish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilishga haqlidirlar.

Sudning ekologiya nuqtai nazaridan zararli faoliyatni to'xtatish to'g'risidagi qarori aytib o'tilgan faoliyatni pul bilan ta'minlashni to'xtatish uchun asos bo'ladi.

53-modda. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro shartnomalar Basharti, O'zbekiston Respublikasi tuzgan xalqaro shartnomada ushbu qonundagidan yoki O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa qonun hujjatidagidan o'zga qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida birmuncha qattiqroq talablar belgilangan hollar bundan mustasno.

XULOSA

Yerda odamning paydo bo'lishi organik dunyo bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Inson tabiatga mehnat qurollari vositasida yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida ta'sir ko'rsatadi. U o'zining tabiat bilan bo'lgan o'zaro ta'siri usullarini takomillashtirib boradi. Natijada inson yashay oladigan hudud kengayadi, foydalaniladigan tabiiy elementlar soni va hajmi ortadi, binobarin, insonning tabiatga tazyiqi sifat jihatidan ham, ko'lam jihatidan g'am ko'payadi. Inson o'zi yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun tabiiy muhitdan tashqari yana sun'iy muhitni ham bunyod etadi. Mac, shaharlar, turar joy binolari, bog'lar, suv omborlari, yo'llar va b. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiy etishi bilan, tabiiy boyliklarning ahamiyati, ulardan foydalaniladigan sohalar, ularni ishlatish shakllari ham o'zgarib boradi. Qadimda bir necha xil kimyoviy elementlardan foydalanilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda mavjud barcha elementlardan foydalaniladi. Shu bilan birga ko'pchilik foydali qazilmalar tobora ko'proq qazib chiqarilmoqda. Insonning tabiatga ta'siri kuchayishidan, antropogen landshaftlar ko'paymokda. Hayvonot va o'simlik olamidan rejasiz foydalanish yoki inson faoliyati bilan bog'liq boshqa sabablar tufayli 16-asrning oxirlaridan 20-a.ning 70y.larigacha umurtqali hayvonlarning 250 turi va kichik turlari butkul yo'qolib ketdi. 80y.lardan boshlab xar yili o'rtacha 1 ta hayvon turi va 50 ga yaqin o'simlik turi yo'qolib bormoqda. Qush va sut emizuvchilarning 1000 dan ortiq turi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Yil davomida 1 mlrd. t yoqilg'i yoqiladi, atmosferaga yuzlab mln. t azot oksidi, oltingugurt, uglerod, qurum, chang va b. chiqariladi. Tuproq va suvlar sanoat va maishiy chiqindilar (bir necha mlrd. t), neft mahsulotlari (bir necha mln. t), mineral o'g'itlar (yuz mln. t ga yaqin), og'ir metallar, radiaktiv chiqindilar bilan ifloslanadi.

Inson tabiiy sharoit va boyliklardan ko'p maqsadlarda foydalanadi. Bu esa ayni paytda, tabiatni tegishlicha muhofaza qilishni ham taqozo etadi. Bular: xo'jalik, sog'liqni saqlash va gigiyena, nafosat (estetik), turizm, ilmiy hamda tarbiyaviy maqsadga muvofiq foydalanish. Maqsadga muvofiq foydalanish

deganda, tabiat boyliklaridan mamlakat yoki butun insoniyat manfaati yo'lida foydalanish tushuniladi. Bunda hozirgi va kelajak avlodning manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritish nazarda tutiladi. O'z taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga ilmiy asosda rejalashtira oladigan va tabiiy muvozanatni o'zgartirmasdan foydalana oladigan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishdan tabiatda ro'y beradigan jarayonlarning o'zaro bog'likligi va rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi bilimlar katta ahamiyatga ega. Busiz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni xisobga olish, tabiatga, tabiat komponentlariga ko'rsatilgan har qanday ta'sirning kelajakda qanday oqibatlariga olib kelishini oldindan bilish mumkin emas. Inson tabiatdan foydalanganda va unga ta'sir ko'rsatayotganda bilishi va faoliyatida amal qilish zarur bo'lgan, asosan, 5 qonuniyat mavjud: 1) tabiatdagi barcha komponent va elementlar o'zaro bir-birlari bilan bog'langan, o'zaro ta'sir etib, muayyan muvozanatda bo'lib, uyg'unlik hosil qilgan. Biron komponent yoki element o'zgarsa, butun tabiiy kompleksda o'zgarish ro'y beradi; 2) tabiatda to'xtovsiz modda va energianing aylanma harakati ro'y berib turadi. Bu xayot asosi; 3) tabiiy jarayonlarning rivojlanishida muayyan davriyliklar mavjud (sutkalik, yillik, 12 yillik, 33— 35 yillik va ko'p yillik); 4) zonallik; 5) regionallik.

Insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish. usullari mukammallasha borgan sari jadallashadi, tabiatdan, uning boyliklarini, qurilish va ishlab chiqarish. texnikasi, aloqa vositalari yirik shaharlarni o'zgartirib, yirik vohalar, madaniy landshaftlar yaratishga, hosildor ekin hamda mevalar, mahsuldor chorva mollari yetishtirishga imkon beradi. Lekin ba'zan chuqur o'rganmasdan inson qudratiga ortiqcha baho berib, tabiatga ta'sir ko'rsatish tabiatni foydalanib bo'lmaydigan holatga, uning buzilishi va ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunday manzara insoniyatning butun tarixi mobaynida kuzatiladi. Pekin 19-a.gacha insonning tabiatdan foydalanish ko'lami uncha katta bo'lmagani uchun inson faoliyatining tabiatga ta'siri ham kamroq bo'lgan. 20-a.ning 2yarmida sanoat ishlab chiqarish.ning rivojlanishi, qishloq xo'jaligi.da turli xil kimyoviy moddalarning ko'p qo'llanilishi, katta maydonlarda muttasil bir xil ekinlarning yetishtirilishi, transport vositalarining ortiqcha ko'payib ketishi, shaharlarning yiriklashib ketishi, tabiat muhofazasiga yetarlicha e'tibor berilmaganligi tabiiy muhitning buzilishiga, ayrim joylarning ifloslanib ketishiga sabab bo'ldi. Ayrim konchilik sanoati rnlarida tabiiy muhit juda buzilib ketgan. Katta maydonlarni kon chiqindi jinslari egallagan, chuqur ochiq karyerlar yer osti suvi sathini pasaytirishi natijasida o'simlik qoplami qurib bormoqda. Rekultivatsiya ishlariga, xususan

rivojlanayotgan mamlakatlarda yetarlicha e'tibor berilmaydi. Hoz. vaqtda T.m.q. muayyan o'lka yoki mamlakat doirasidan chiqib, umumjahon muammosiga aylanib bormokda. Yerning ozon pardasidagi o'zgarishlar, dunyoda haroratning ko'tarilib borayotgani, qutbiy va tog' muzliklarining qisqarib borayotgani ana shunday muammolardan. Ayniqsa, qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklarning kamayib borayotganligi va atrof tabiiy muhitning ifloslanayotgani bir qancha mamlakatlarda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda T.m.q. tadbirlarini ko'rishga majbur etdi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda o'rmonlarni kesish cheklandi, yerdan kadastr asosida foydalaniladigan bo'ldi, daryo va ko'llar suvlari tozalanib, baliqlarni ko'paytirish boshlandi. Ovchilik tartibga solindi, qo'riqxonalar, muhofaza qilinadigan hududlar ko'paytirildi.

Biroq 20-a.ning o'rtalaridan boshlab zararli chiqindili ishlab chiqarish. korxonalarining rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirila boshlangani bu mamlakatlarda atrofmuhitning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli tabiatni muhofaza qilishga yetarli mablag' ajratishga qodir emas. T.m.q. sohasida xalqaro qat'iy hamkorlikning yo'qligi ham tabiiy boyliklardan foydalanishda va T.m.q.da yetarlicha samara bermayapti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A., O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston. 1997. 43-b.
2. Акрамов З.М., Рафиков А.А. Прошлое, настоящие и будущие Аралского моря.- Т.,1990. 58с.
3. Alibekov A.A., Nishonov S.A. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan rasional foydalanish.-T.: «O'qituvchi», 1983. 24-27-betlar.
4. Бекназаров Р.У., Новиков Ю. Охрана природы. Т., 1995. 78с.
5. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish.- Т.: «O'qituvchi», 1991. 112-121-betlar.
6. Baratov P. Yer bilimi va o'lkashunoslik. – Toshkent: 1990. 67-74-betlar.
7. Egamberdiyev R. Ekologiya.-T.: «O'zbekiston», 1988. 234-243-betlar.
8. Nig'matov A.N. O'zbekiston Respublikasining ekologik huquqi.- Т., 2004. 36-b.
9. Otabayev Sh., Nabiyeu M. Inson va biosfera. -T.: «O'qituvchi», 1995. 143-155-betlar.
10. Rafikov A.A. Geoekologik muammolar.- Т., 1997. 235-b.
11. To'xtayev L., Hamidov A., Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish.-T., 1994. 167-175-betlar.
12. To'xtayev A.S. Ekologiya (darslik).- Т.: «O'qituvchi», 1998. 145-156-betlar.
13. Tursunov X.T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish.- Т.: «O'zbekiston», 1997. 100-112-betlar.
14. G'ulomov P.N., Inson va tabiat.- Т., 1990. 67-b.

15. Yo'ldoshev H. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari.- T.,1997. 45-57-betlar.

Elektron darsliklar va boshqa elektron o'quv materiallari

1. [http://www. Environment.ru](http://www.Environment.ru).

2. [http://www. Ecologye.ru](http://www.Ecologye.ru).

3. <http://www. Environ.com>.

4. <http://www. Ecolog. com>.

5. <http://www.clin. procl. Com>.

